

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҚОНУНЧИЛИК
ТЎПЛАМИ

27-сон
(1203)
2025 йил
июль

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

Иккинчи бўлим

329. «Тошкент архитектура-қурилиш университети фаолиятида таълим тизими самарадорлигини ошириш ва илмий тадқиқотларнинг амалиёт билан интеграциясини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 1 июлдаги ПҚ–209-сон қарори
330. «Тасвирий ва амалий санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 1 июлдаги ПҚ–212-сон қарори

Учинчи бўлим

331. «Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш дастурларини шакллантириш ва амалга ошириш ишларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 30 июндаги 401-сон қарори

332. «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 1 июлдаги 405-сон қарори

Бешинчи бўлим

333. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2025-yil 18-iyundagi 01/7-11/40-son "Maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo'lgan bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini hokim yordamchilarining onlayn buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3372-2*)
334. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 266-son, Soliq qo'mitasining 2025-yil 10-iyundagi 2025-11-son va Transport vazirligining 2025-yil 30-maydagi 6-son "Xalqaro temir yo'l aloqalaridagi hisob-kitoblarda temir yo'l ma'muriyatlari o'rtasidagi o'zaro hisoblashishlar tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1696-1*)
335. Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги директорининг 2025 йил 17 июндаги 9-сон "Қимматли қоғозлар эмиссияси ва эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқарилишларини давлат рўйхатидан ўтказиш қоидаларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 30 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2000-12*)
336. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 16-iyundagi 8-son "Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar va nitromastikalar ishlab chiqarish xodimlari uchun xavfsizlik qoidalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2016-4*)
337. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 16-iyundagi 11-son "Yuk ko'targich (minora)larni o'rnatish va ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2313-3*)
338. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 17-iyundagi 267-son "Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya*

vazirligi tomonidan 2025-yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3634)

339. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 29-maydagi 202-son "Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3635*)
340. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 28-son, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 7-mh-son "Jasorat maktablari"ga o'quvchilarni qabul qilish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3636*)
341. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирининг 2025 йил 23 июндаги 29-сон "Хориждан келтирилган ғўза уруғликларининг генетик тозалиги бўйича молекуляр-генетик таҳлиллар ўтказиш юзасидан маҳаллий ваколатли лаборатория ҳулосасини олиш тартиби тўғрисидаги низомнинг 10-бандига ўзгартириш киритиш ҳақида"ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 2 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3504-1*)
342. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 20-maydagi 258-son "Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyruq, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 4-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1808-3*)

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ

329 Тошкент архитектура-қурилиш университети фаолиятида таълим тизими самарадорлигини ошириш ва илмий тадқиқотларнинг амалиёт билан интеграциясини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида*

Архитектура ва қурилиш соҳасида малакали кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш жараёнларини сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш, илм-фан ва амалиётнинг ўзаро уйғунлигини барқарор таъминлаш, илмий тадқиқотлар ўтказишга инновацион ёндашувлар ва технологияларни жорий қилиш, замонавий қурилишнинг янги йўналишлари учун илмий ечимларни ишлаб чиқиш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Мақсадлар

1. Тошкент архитектура-қурилиш университети фаолиятида эришиладиган асосий самарадорлик кўрсаткичлари этиб қуйидагилар белгилансин:

(а) дуал таълим шаклини тўлиқ жорий қилиш орқали таълим жараёнларининг амалиёт билан интеграциясини таъминлаш;

(б) 2029 йилда дунёнинг нуфузли Quacquarelli Symonds (QS) ва Times Higher Education (THE) ташкилотлари рейтингларида соҳалар бўйича биринчи 1000 талик рўйхатдаги олий таълим ташкилотлари қаторига кириш;

(в) ўқув ва бошқарув жараёнларини тўлиқ рақамлаштириш;

(г) илмий салоҳиятни экспорт қилиш доирасида 2028 йил якунига қадар Университет брендини шакллантириб, хорижий давлатлардан камида 1 000 нафар талабани жалб қилиш;

(д) 2026/2027 ўқув йилига қадар таълим жараёнларини ташкил этиш, лабораторияларни жиҳозлаш ва илмий тадқиқотлар олиб бориш учун камида 10 миллион доллар миқдорида инвестициялар жалб қилиш.

II. Университетда таълим бериш жараёнларини такомиллаштириш

2. 2025/2026 ўқув йилидан бошлаб Тошкент архитектура-қурилиш университетида (кейинги ўринларда — Университет) ўқитишнинг дуал таълим шакли жорий этилсин.

Белгилансинки, дуал таълим дастури кредит-модуль тамойили асосида бакалавриат босқичининг:

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 1 июлда эълон қилинган.

(а) биринчи курс талабалари учун — таълим дастурларининг 60 фоизи (назарий қисмлари) аудиторияларда, 40 фоизи (амалиёт қисми) қурилиш саноати корхоналарида;

(б) иккинчи, учинчи ва тўртинчи курс талабалари учун — таълим дастурларининг 40 фоизи (назарий қисмлари) аудиторияларда, 60 фоизи (амалиёт қисми) қурилиш саноати корхоналарида ўтказилади.

3. Университетга қурилиш саноати корхоналарида кафедралар филиалларини ташкил этиш ва таълим дастурларининг назарий қисмини ишлаб чиқариш жараёни орқали ўқитишга рухсат этилсин. Бунда:

(а) талабаларга дарс бериш учун амалиётда фаолият юритаётган тегишли йўналишлардаги тажрибали мутахассислар Университет кафедралари ва уларнинг филиалларига жалб қилинади;

(б) тегишли қурилиш саноати корхоналари фаолиятидаги долзарб масалаларга оид талабаларнинг курс лойиҳалари, битирув малакавий ишлари ва диплом лойиҳалари, магистрант ва докторантларнинг диссертациялари ушбу ташкилотлар вакиллари иштирокида муҳокама қилинади;

(в) Университет кафедраларининг профессор-ўқитувчилари ўқув режа ва дастурларини қурилиш саноати корхоналари мутахассислари билан биргаликда доимий такомиллаштириб боради.

4. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

(а) 2025 йил 1 сентябрдан бошлаб лойиҳа-қидирув ва қурилиш-пудрат ташкилотлари электрон рейтингларида архитектура, қурилиш ва муҳандислик йўналишлари бўйича ҳар ойда камида 30 нафар талаба (изланувчи) ёки ўқувчи амалиёт ўташи бўйича кўрсаткич киритилади ҳамда бунинг учун ташкилотларга қўшимча 0,5 балл берилади;

(б) амалиёт ўтаётган талаба, ўқувчи ва изланувчилар маълумотлари тегишли таълим ташкилоти томонидан «Шаффоф қурилиш» ва «HEMIS» ахборот тизимларининг интеграцияси доирасида етказилади.

5. 2025/2026 ўқув йилидан бошлаб ўқув йили режалаштирилиши жараёнида тегишли таълим дастурлари бўйича амалий машғулотлар ва лаборатория ишларининг камида 25 фоизини хорижий профессор, халқаро сертификатга эга профессионал мутахассислар томонидан ўтказиш назарда тутилиши белгилансин.

6. 2025 йил 1 сентябрдан бошлаб тажриба-синов тариқасида «мактаб — техникум (лицей) — университет» тамойили асосида кадрларни тайёрлаш йўлга қўйилсин. Белгилансинки, тажриба-синов амалиёти доирасида:

(а) Тошкент шаҳри Юнусобод тумани 250- ва 273-сонли умумтаълим мактаблари Университетга бириктирилади ва Университет:

(i) ҳар ойда бир маротаба 7 — 9-синф ўқувчиларини уларнинг қизиқишлари доирасида геометрия, чизмачилик, физика фанларининг архитектура, дизайн, муҳандислик ва сунъий интеллектга оид мавзуларини Университет лабораторияларида дарсдан ташқари машғулот сифатида ўқитади ва шу орқали уларни тегишли техникумларга тайёрлаш чоралари кўрилади;

(ii) ўқувчиларнинг Университет лабораторияларига хавфсиз бориб келишларини таъминлайди;

(б) Университет ҳузуридаги академик лицей ва техникумлар ўқувчилари Университет кафедраларига бириктирилиб:

(i) улар учун ҳар ойда камида бир маротаба Университет лабораторияларида амалий машғулотлар олиб борилади;

(ii) Университетга кириш имтиҳонлари фанлари бўйича қўшимча онлайн машғулотлар ташкил этилади.

III. Университет фаолиятини рақамлаштириш

7. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда Университетнинг ўқув ва бошқарув жараёнларини тўлиқ рақамлаштириш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин. Белгилансинки, биринчи босқичда 2025/2026 ўқув йилидан бошлаб:

(а) Университетда таълим жараёнларини рақамлаштириш доирасида:

(i) сунъий интеллект технологиялари орқали ўқув жараёнлари ва амалий машғулотлар таҳлили олиб борилади, аниқланган кўрсаткичлар асосида дарс жараёнлари сифатини ошириш чоралари кўрилади;

(ii) талабалар ва магистрантлар иштирокида таълим дастурлари сифати ва уларни ўқитиш услуги бўйича онлайн сўровномалар ўтказилиб, таклифлар асосида доимий такомиллаштириб борилади;

(iii) талабалар ва магистрантларнинг таълим жараёнларида иштирок этишини онлайн кузатиш ва қайд қилиш тизими йўлга қўйилади;

(iv) кафедралар, факультетлар ва лабораториялар учун белгиланган самарадорлик кўрсаткичларига эришиш таҳлили юритилади ва улар шу асосда автоматик баҳоланади;

(б) Университетда бошқарув жараёнларини рақамлаштириш доирасида:

(i) қоғоз шаклидаги ҳужжатлар алмашинуви тўлиқ бекор қилиниб, электрон шаклда амалга оширилади;

(ii) Университет балансида мавжуд барча мол-мулкнинг ягона онлайн-электрон рўйхати юритилади;

(iii) ходимлар ва профессор-ўқитувчилар белгиланган самарадорлик кўрсаткичларига эришиши таҳлили ҳамда улар асосида иш ҳақи тайинланиши инсон омилисиз амалга оширилади;

(iv) сарфланаётган маблағлар тегишли йил учун тасдиқланган даромадлар ва харажатлар сметасига мувофиқлиги ҳамда харажатлар динамикаси электрон назорат қилинади.

IV. Илмий тадқиқотларни амалиётга интеграция қилиш

8. Қурилиш соҳасида янги илмий ишланма ва инновацияларни синовдан ўтказиб, амалиётга киритишнинг мутлақо янги тартибини жорий қилиш мақсадида 2025 йил 1 сентябрдан бошлаб «Университет — лаборатория — корхона — вазирлик» экотизими (кейинги ўринларда — Экотизим) жорий этилсин. Экотизим доирасида ҳар йили:

(а) Университет:

(i) ҳамкорлик қилаётган қурилиш саноати корхоналаридан илмий тадқиқотлар ўтказиш бўйича буюртмалар қабул қилинишини;

(ii) талабалар, магистрантлар, илмий изланувчилар ўртасида «Энг яхши 20 та ғоя» танловини эълон қилиб, саралаб олиннишини;

(iii) ғолиб лойиҳалар бўйича лабораторияларда тадқиқотлар ўтказилишини, унинг натижалари Университет Илмий-техник кенгашида муҳокамадан ўтказилиб, буюртмачи қурилиш саноати корхоналарига тақдим этилишини таъминлайди;

(б) Университет ва Савдо-саноат палатаси илмий тадқиқот натижалари ғоя муаллифлари ва профессор-ўқитувчилар иштирокида қурилиш саноати корхоналари ва объектларида синаб кўрилишини таъминлайди;

(в) Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги муваффақиятли синовдан ўтган илмий тадқиқот натижалари бўйича қурилиш соҳасидаги норматив ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритади;

(г) Савдо-саноат палатаси амалиётга жорий этилган илмий тадқиқотлар муаллифларини Савдо-саноат палатаси Тармоқларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг 35 баравари миқдо-рида молиявий рағбатлантиради.

9. Белгилансинки, 2025 йил 1 сентябрдан бошлаб:

(а) давлат олий таълим ташкилотларининг архитектура ва қурилиш йўналишидаги барча лабораториялари фаолияти Университет томонидан «UniLab» платформаси орқали Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги кўмагида мувофиқлаштириб борилади;

(б) ҳамкорлик ва буюртмалар доирасида келиб тушаётган лойиҳалар Университет томонидан лабораториялар ўртасида уларнинг илмий салоҳияти ва техник имкониятларидан келиб чиқиб, тақсимланади.

10. Университет тузилмасида амалдаги штат бирликлари доирасида Университет ректори раҳбарлигида фаолият юритувчи Худудларнинг архитектура ва шаҳарсозлик қиёфасини ривожлантириш маркази (кейинги ўринларда — Марказ) ташкил этилсин ва унинг асосий вазифалари этиб қуйидагилар белгилансин:

(а) «Ақлли ва хавфсиз шаҳар» моделини яратиш;

(б) жамоат парклари ва кўчаларнинг дизайн кодларини ишлаб чиқиш ҳамда жорий этиш бўйича ишларни ташкил этиш;

(в) қурилиш майдонларини тартибга солиш, аҳоли учун ноқулайликлар яратувчи салбий омилларни бартараф этиш ечимларини ишлаб чиқиш;

(г) аҳоли орасида қурилиш маданиятини шакллантириш, яқка тартибдаги уй-жойларни тартибли қуриш бўйича замонавий ёндашувларни тарғиб қилиш;

(д) янги қурилаётган бинолар майдонларини ўлчаш ва хоналарини лойиҳалашнинг илғор методикаларини ишлаб чиқиш;

(е) қурилиш жараёнлари давомийлигини сифатни таъминлаган ҳолда қисқартириш бўйича илмий ечимларни тайёрлаш;

(ж) жамоат бинолари ва кўп квартирали уй-жойларни қуриш ва реконструкция қилиш ишларини лойиҳалаштириш;

(з) маданий мерос объектларини хатловдан ўтказиш ва реставрация қилиш режаларини ишлаб чиқиш;

(и) ҳудудлардаги қурувчилар ва муҳандис-конструкторлар учун онлайн консультациялар ҳамда малака ошириш курсларини ўтказиш.

Белгилансинки, Марказ ўз фаолиятини туман ва шаҳарлар ҳокимликлари билан, шу жумладан, хўжалик шартномалари асосида бевосита ҳамкорликда олиб бориб, ҳар чоракда янги лойиҳаларни тақдим этади.

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари Марказ фаолиятини маҳаллий ҳокимликлар билан биргаликда ташкил этишда Университетга амалий ёрдам кўрсатиб борсин.

11. Университетнинг Марказ фаолиятини йўлга қўйиш доирасида қуйидаги таклифларига розилик берилсин:

(а) профессор-ўқитувчилар ва изланувчиларни туман (шаҳарлар)га бириктириш ҳамда режа-графикка асосан тегишли ҳудудларда илмий тадқиқотлар ўтказиш;

(б) ўрганишлар якунига кўра, маҳаллий ҳокимликлар билан ҳудудларда бинолар, жамоат парклари ва кўчаларнинг миллий архитектура қиёфасини яратиш бўйича моделларни ишлаб чиқиш;

(в) профессор-ўқитувчиларга ойлик иш ҳақини белгилаш доирасида усталарга ҳудудлардан жалб қилинган ҳар бир лойиҳа учун қўшимча самарадорлик кўрсаткичини киритиш, изланувчиларни молиявий рағбатлантириш.

**V. Нуфузли хорижий олий таълим ташкилотлари билан
талабалар алмашинувини йўлга қўйиш, кадрларни қайта
тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини
такомиллаштириш**

12. Университет ва Германия Федератив Республикасининг Баухаус-Веймар университети ўртасида ўзаро ҳамкорлик доирасида:

(а) 2025/2026 ўқув йилидан бошлаб Университетнинг бакалаврият ва магистратура босқичи талабалари ҳамда докторантларининг алмашинув дастурлари бўйича Баухаус университетида таҳсил олишига;

(б) алмашинув дастури бўйича талабалар ҳамда докторантлар сафар харажатларини Университетга ажратилаётган хорижий грант маблағлари ҳисобидан қоплашга рухсат этилсин.

13. Университет профессор-ўқитувчиларининг сифатли малака оширишини ташкил этиш мақсадида:

(а) ҳар чоракда камида бир маротаба Германия, Япония, Малайзия, Польша каби давлатлар олимлари иштирокида семинарлар;

(б) ҳар академик йилда Буюк Британия, Германия, Япония, Италия, АҚШ, Россия, Хитой, Малайзия каби давлатларга стажировкалар ташкил этиб борилсин.

Белгилансинки, профессор-ўқитувчиларнинг малака оширишини ташкил этиш билан боғлиқ харажатлар тегишлича грантлар ва ҳомийлик маблағлари ҳисобидан қопланади.

VI. Архитектура ва қурилиш соҳасининг янги йўналишлари бўйича илмий асосларни яратиш

14. Университет ҳузурида «Яшил» қурилиш илми ва технологияларини жорий қилиш кенгаши (кейинги ўринларда — Кенгаш) ташкил этилсин ва унинг асосий вазифалари этиб қуйидагилар белгилансин:

(а) энерготежамкор, қайта тикланувчи энергия манбалари ва экологик қурилиш материалларини ишлаб чиқариш технологияларини жорий қилиш;

(б) «яшил» стандартларни минтақанинг иқлим ва экологик шароитларига мослаштириш илмини яратиш;

(в) «яшил» қурилиш технологияларини стандартлаштириш ва сертификатлаштириш лойиҳаларини ишлаб чиқиш;

(г) «яшил» қурилиш йўналишида кадрлар тайёрлаш юзасидан таклифларни ишлаб чиқиш;

(д) шаҳарлар ва массивларни яшиллаштириш моделларини яратиш.

15. Белгилансинки:

(а) Кенгаш таркиби Университет ректори томонидан нуфузли хорижий олий таълим ташкилотлари профессорлари, халқаро сертификатга эга мутахассислар ва бошқа олимлардан шакллантирилади;

(б) ҳар чоракда мазкур йўналишда янги илмий ишланмаларни амалиётга татбиқ этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқилади;

(в) Кенгаш таклифлари қурилиш, экология ва энергетика соҳаларига масъул давлат органлари томонидан консилиум шаклида кўриб чиқилади ҳамда уларни амалга ошириш юзасидан ҳар йили қўшма ҳаракатлар режаси тасдиқланади.

16. Архитектура ва қурилиш соҳасидаги мавжуд муаммоларнинг илмий ечимларини амалиётга жорий қилиш мақсадида 2025 йил 1 августдан бошлаб шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

(а) ҳар чоракда Университет профессор-ўқитувчилари ва изланувчиларининг қурилиш саноати корхоналари вакиллари билан очик мулоқоти ташкил этилади;

(б) очик мулоқот жараёнида қурилиш соҳасидаги муаммолар ва янги йўналишлар муҳокама қилинади, натижаси бўйича янги илмий ечимларни жорий қилиш юзасидан Университет ва ишлаб чиқарувчи ҳамда хизмат кўрсатувчи ташкилотлар ўртасида хўжалик шартномаларини тузиш имконияти яратилади;

(в) ҳар ярим йилда:

(i) давлат буюртмаси асосида республика миқёсида қурилиши режалаштирилган хавфлилик омили III-IV тоифа бўлган объектлар лойиҳалари Университет ҳузуридаги Илмий-техник кенгашда талаба, магистрант ва изланувчилар билан муҳокама қилинади;

(ii) муҳокамаларда янги конструктив ва сейсмик ечимлар ишлаб чиқилиб, лойиҳаларни такомиллаштириш бўйича таклифлар Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлигига тақдим этилади;

(г) Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳар йили 1 декабр-

га қадар қурилиш соҳасида янги конструктив ечимлар, норматив ҳужжатлар ва муаммолар бўйича илмий тадқиқотларни ўтказиш учун Университетга мавзулар рўйхатини тақдим этиб боради.

VII. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

17. Қуйидагилар:

(а) Тошкент архитектура-қурилиш университети фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича «йўл харитаси» 1-иловага*;

(б) Тошкент архитектура-қурилиш университетини 2030 йилга қадар ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари 2-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 ноябрдаги «Архитектура-қурилиш соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–416-сон қарорига 3-иловага* мувофиқ ўзгартиришлар киритилсин.

19. Мазкур қарор ижросини самарали ташкил этишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Тошкент архитектура-қурилиш университети ректори Б. Тўлаганов, олий таълим, фан ва инновациялар вазири Қ. Шарипов, қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазири Ш. Хидоятов ҳамда Савдо-саноат палатаси раиси Д. Вахобов белгилансин.

20. Қарор ижросини назорат қилиш ва ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 1 июль,
ПҚ–209-сон

* 1 — 3-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ

330 Тасвирий ва амалий санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида*

Ўзбекистон тасвирий ва амалий санъатини янада ривожлантириш ва жаҳон миқёсида оммалаштириш, истеъдодли ёш рассомларни қўллаб-қувватлаш, бадиий таълим соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини илғор хорижий тажрибалар асосида такомиллаштириш ҳамда янги замонавий технологияларни қўллаган ҳолда креатив лойиҳаларни амалга ошириш мақсадида **қарор қиламан:**

1. Қуйидагилар тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн соҳасини ривожлантиришда Ўзбекистон Бадиий академияси (кейинги ўринларда — Бадиий академия) фаолиятининг асосий устувор йўналишлари этиб белгилансин:

(а) тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн соҳаси ходимларини моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш ҳамда уларнинг самарали ижод қилиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш;

(б) истеъдодли ёш рассомлар учун мўлжалланган ижодий устахоналар фаолиятини йўлга қўйиш, уларнинг шахсий ва жамоавий кўргазмаларини уюштириш;

(в) ёшларга оид давлат сиёсатини изчил амалга ошириш мақсадида истеъдодли ёшларни тасвирий ва амалий санъат соҳаларига кенг жалб этиш ҳамда уларнинг ушбу йўналишда турли креатив лойиҳалардаги иштирокини рағбатлантириш;

(г) бадиий таълим соҳасида кадрлар тайёрлашга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш, уларни амалиётга жорий этиш ва такомиллаштириш, шунингдек, академик бадиий таълимнинг изчиллигини таъминлаш билан боғлиқ вазифаларни ҳал этиш;

(д) Ўзбекистон тасвирий ва амалий санъатини жаҳон миқёсида оммалаштириш мақсадида халқаро ҳамкорликни ривожлантириш.

2. 2026-2027 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури доирасида:

(а) Бадиий кўргазмалар дирекциясининг кўргазмалар зали жаҳон стандартлари асосида реконструкция қилинсин ва жиҳозлансин;

(б) Бадиий кўргазмалар дирекцияси фондининг Тошкент шаҳри Чилонзор тумани Лутфий кўчаси 10а-уй манзилида жойлашган биноси реконструкция қилинсин, унинг ҳудудида замонавий галерея биноси қурилсин ҳамда 40 та ижодий устахонадан иборат юридик шахс мақомига эга бўлмаган Ёш рассомлар маркази фаолияти йўлга қўйилсин;

(в) Камолиддин Беҳзод номидаги Шарқ миниатюра санъати музейи ҳудудида қўшимча бино қурилсин ва у ерда миллий усулда қоғоз тайёрлаш бўйича юридик шахс мақомига эга бўлмаган ўқув-ишлаб чиқариш устахонаси ташкил этилсин;

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 4 июлда эълон қилинган.

(г) Павел Беньков номидаги Республика ихтисослаштирилган рассомлик мактаби ҳудудида қўшимча 400 ўринли ўқув биноси қурилсин, шунингдек, ушбу мактабнинг ўқув биноларини капитал таъмирлаш ишлари учун зарур капитал қўйилма маблағлари назарда тутилсин.

Бунда Павел Беньков номидаги Республика ихтисослаштирилган рассомлик мактаби ҳудудида 200 ўринли ўқувчилар тураржойи биносини қуриш давлат-хусусий шериклик асосида амалга оширилиши кўзда тутилсин.

3. Бадий академия:

(а) Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан 2026 йилда Бадий академияга ажратиладиган маблағлар ҳисобидан Тошкент фотосуратлар уйида юридик шахс мақомига эга бўлмаган Мультимедиа марказини;

(б) замонавий галерея биноси ва унинг ҳудудида 15 мингдан ортиқ ноёб асарларни сақлаш учун фонд, кутубхона, фотолаборатория, тасвирий ва амалий санъат, ҳайкалтарошлик асарлари, сувенирларни тайёрлаш ва таъмирлаш устахоналари ҳамда лабораториясини ташкил этсин.

4. Ёш рассомлар марказида:

(а) Бадий ижодкорлар уюшмаси (кейинги ўринларда — Уюшма) ёш аъзолари учун рассомлар ижодий устахоналари фаолияти йўлга қўйилсин;

(б) Уюшма тавсиясига кўра, Бадий академия бошқарув кенгаши қарорига мувофиқ мазкур ижодий устахоналар ёш ижодкорларга муайян муддатга текин фойдаланиш ҳуқуқи асосида берилсин;

(в) тегишли йўналишлар бўйича тўғараклар фаолияти йўлга қўйилсин.

5. Бадий академия Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда 2026 йилдан бошлаб Бадий академия ҳамда Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтининг бюджетдан ташқари маблағлари, ҳомийлар ва халқаро грантлар ҳисобидан ҳар йили танлов асосида Рассомлик маҳорати устахонаси стажёрлари, энг истеъдодли ёш рассом, ҳайкалтарош, дизайнер, реставратор, санъатшунос ва музейшуносларни хорижий мамлакатларга малака ошириш ва стажировкага юбориш амалиётини йўлга қўйсин.

6. Рассомлик маҳорати устахонасида истеъдодли ёш рассомларни устоз-шогирд анъаналари асосида тарбиялаб келаётган таниқли ижодкорлар Бадий академияга Давлат бюджетидан ажратилган маблағлар доирасида меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 1,6 бараваригача миқдорда ҳар ой қўшимча рағбатлантириб борилсин.

7. Бадий академия, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги соҳадаги нуфузли хорижий олий таълим муассасаларининг ўқув режа ва дастурлари ҳамда кадрлар тайёрлаш андозаларини Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти фаолиятига 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб босқичма-босқич жорий этиш чораларини кўрсин.

8. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга кўра 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб:

(а) Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтида ташқи ўриндошлик асосида фаолият олиб бораётган илмий даража ва илмий унвонга эга бўлган ижодкор педагог кадрлар мазкур таълим ташкило-

тининг илмий салоҳият кўрсаткичларида инобатга олинади, асосий иш жойи бошқа олий таълим ташкилотларида бўлган ходимлар бундан мустасно;

(б) Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтида фаолият олиб бораётган педагог кадрлар томонидан яратилган юксак бадиий асарлар институт кенгаши қарорига асосан монографияга тенглаштирилади;

(в) Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтининг ўқув дастури доирасида психология ва педагогика фанларидан тахсил олган ранг-тасвир, амалий санъат ва дизайн бакалавриат таълим йўналишлари ҳамда магистратура мутахассисликлари битирувчиларига умумий ўрта таълим муассасаларида тасвирий санъат фанидан таълим беришга рухсат этилади.

9. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари, вазирликлар, идоралар ва хўжалик бирлашмалари шаҳарлар инфратузилмасининг эстетик кўринишини янада бойитиш ҳамда шаҳарсозлик маданиятини ривожлантириш мақсадида Давлат бюджет-и маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган ижтимоий соҳа объектлари қурилиш сметасига бадиий-ижодий ишларни харид қилиш харажатларини киритиб борсин.

10. Бадиий академия 2026 йилдан бошлаб Бадиий академияга Давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар доирасида «Янги Ўзбекистон манзаралари», «Буюк алломалар» ва «Замон қаҳрамонлари» каби туркумдаги иждоий асарларни давлат буюртмаси асосида яратиш тизимини йўлга қўйсин.

11. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Бадиий академия марказий аппарати 2027 йилда 1 та микроавтобус сотиб олиш ва сақлаш учун лимит ажратсин.

12. 2025 йил 1 июлдан бошлаб Бадиий академия марказий аппарати ва унинг Қорақалпоғистон Республикаси бўлими ходимлари учун Давлат бюджет-и маблағлари ҳисобидан моддий рағбатлантиришнинг қуйидаги турлари жорий этилсин:

(а) ходимларнинг лавозим маошига 200 фоиз миқдорида ойлик устамалар белгилаш;

(б) кўп йиллик меҳнати учун рағбатлантириш коэффициентини ҳисобга олган ҳолда ходимларнинг лавозим маошига белгиланган коэффициентларда қуйидаги ҳажмларда ҳар ойда устама тўлаш (хизмат кўрсатувчи ва техник ходимлардан ташқари): 1 йилдан 5 йилгача — 0,3; 5 йилдан 10 йилгача — 0,6; 10 йилдан 15 йилгача — 0,9; 15 йилдан ортиқ — 1,2.

Мазкур бандда назарда тутилган тадбирларни молиялаштириш 2025 йилда Бадиий академияга ажратилган маблағлар доирасида, 2026 йилдан эса Давлат бюджет-и параметрларида мазкур мақсадлар учун белгиланган тартибда назарда тутилган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

13. Тасвирий ва амалий санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар дастури иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

14. Бадиий академиянинг Тошкент шаҳри Яккасарой тумани Шароф Рашидов кўчаси 40-уй манзилида жойлашган бино ва иншоотлари тегишли

* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

худуди билан бирга Бадий кўргазмалар дирекциясига оператив бошқариш ҳуқуқи билан бепул берилсин.

15. Қуйидагилар:

(а) Бадий ижодкорлар уюшмаси Тошкент шаҳри Яккасарой тумани Шароф Рашидов кўчаси 40-уй манзилида жойлашган Бадий кўргазмалар дирекцияси бино ва иншоотларининг бир қисмига;

(б) Уюшма ҳузуридаги Бадий ишлаб чиқариш устахонаси Тошкент шаҳри Чилонзор тумани Лутфий кўчаси 10а-уй манзилида жойлашган Бадий кўргазмалар дирекцияси фонди бино ва иншоотларининг бир қисмига;

(в) «San'at» журнали таҳририяти Тошкент шаҳри Миробод тумани Истиқбол кўчаси 4-уй манзилида жойлашган Тошкент фотосуратлар уйи бино ва иншоотларининг бир қисмига;

(г) Бадий академия ҳузуридаги Бадий таълим йўналишларида педагог ва мутахассис кадрларни қайта тайёрлаш ҳамда уларнинг малакасини ошириш мақсади Тошкент шаҳри Учтепа тумани Ширин кўчаси 1а-уй манзилида жойлашган Республика ихтисослаштирилган дизайн мактаби бино ва иншоотларининг бир қисмига текин фойдаланиш ҳуқуқи асосида жойлаштирилсин.

16. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси, Бадий академия:

(а) тасвирий ва амалий санъат тарихи ҳамда бугунги кундаги ривожини кенг тарғиб қилиб бориш мақсадида давлат телеканалларида соҳанинг етук мутахассислари ижодига бағишланган теледастурлар туркумини мунтазам равишда намоиш этиб борсин;

(б) икки ой муддатда соҳадаги истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг фаолиятини кенг тарғиб қилиш мақсадида «Madaniyat va ma'rifat» телеканалида «Ёшлар ижоди» кўрсатувини ташкил этсин;

(в) Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги билан биргаликда ушбу қарорнинг мазмун-моҳияти ва қарор ижроси билан боғлиқ тадбирларни оммавий ахборот воситаларида кенг ёритиш чораларини кўрсин.

17. Бадий академия манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

18. Мазкур қарор ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Ўзбекистон Бадий академияси раиси А.В. Нуридинов белгилансин.

Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси Ижтимоий ривожланиш департаменти раҳбари О.Қ. Абдурахманов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 1 июль,
ПҚ-212-сон

УЧИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

331 Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш дастурларини шакллантириш ва амалга ошириш ишларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон — 2030» стратегиясида белгиланган асосий йўналишлар бўйича ислохотларни амалга оширишнинг 2024 йилдаги устувор чора-тадбирлари тўғрисида» 2024 йил 4 мартдаги ПҚ–109-сон қарорига мувофиқ суғориладиган ерларда тупроқнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш дастурларини сифатли шакллантириш ва ўз вақтида амалга ошириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Қуйидагиларни назарда тутувчи Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш дастурларини шакллантириш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин:

мелиорация объектларини қуриш, реконструкция қилиш, таъмирлаш ва тиклаш ҳамда суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича ҳудудий ва манзилли дастурларни шакллантириш, кўриб чиқиш ҳамда тасдиқлаш тартиби;

дастурларга киритилган лойиҳаларнинг лойиҳаолди ва лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ҳамда экспертизадан ўтказиш тартиби;

туғалланган объектларда ишларни қабул қилиб олиш тартиби.

2. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни икки ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

3. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг 2-иловага мувофиқ айрим қарорлари ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

4. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Ж.А. Ходжаев ҳамда Ўзбекистон Республикаси сув хўжалиги вазири Ш.Р. Хамраев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 30 июнь,
401-сон

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 1 июлда эълон қилинган.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 30 июндаги 401-сон қарорига
1-ИЛОВА

**Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини
яхшилаш дастурларини шакллантириш ва амалга ошириш
тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш мақсадида мелиоратив объектларни қуриш, реконструкция қилиш, тизимли таъмирлаш ва тиклаш дастурларини шакллантириш, лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқиш, экспертизадан ўтказиш, тасдиқлаш ҳамда амалга ошириш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланади:

дренаж (очиқ ва ёпиқ) — дренаж сувларини тўплаш ва суғориладиган ер участкалари, аҳоли пунктлари, гидротехника иншоотларидан ташқарига чиқариб ташлашга кўмаклашадиган сув хўжалиги объекти;

дайвер қурилма — мелиоратив объектлардаги сизот сувлар сатҳини онлайн ўлчаш имконини берувчи қурилма;

ёпиқ-ётиқ дренаж — дренаж сувларини тўплашга ва суғориладиган ер участкалари, аҳоли пунктлари, гидротехника иншоотларидан ташқарига чиқариб ташлашга кўмаклашадиган сув хўжалиги объекти;

коллектор (очиқ ва ёпиқ) — асосан дренаж ва ташлама сувларни қабул қилиш ва узатишга, шунингдек, суғориладиган ерлардан ташқарига чиқариб ташлашга кўмаклашадиган сув хўжалиги объекти (иншоотлар билан бирга);

кузатув қудуғи — суғориладиган ерларда сизот сувлар сатҳини ўлчаш ва уларнинг сифатини ўрганиш мақсадида намуна олиш учун барпо этиладиган сув хўжалиги объекти;

мелиоратив объектлар — коллектор-дренаж ва юза ташлама сувларни тўплаш ҳамда суғориладиган ерлардан ташқарига чиқариб ташлашга кўмаклашадиган, коллектор ва дренаж тармоқларни (иншоотлар билан бирга), тик дренаж қудуқларини, ёпиқ-ётиқ дренажларни, мелиоратив насос станцияларини ҳамда кузатув қудуқларини ва уларга ўрнатилган замонавий қурилмаларни ўз ичига оладиган сув хўжалиги объектлари;

мелиоратив насос станцияси (агрегат) — дренаж-ташлама сувларни олиш ва чиқариб ташлаш, жойига кўтариш йўли билан коллекторнинг лойиҳадаги сув ўтказиш қобилятини таъминлашга хизмат қиладиган сув хўжалиги объекти;

тик дренаж қудуғи — ерости босимли ва сизот сувларни чиқаришга хизмат қиладиган (иншоотлар билан бирга) сув хўжалиги объекти.

3. Мелиоратив объектларни қуриш ва реконструкция қилиш ишлари Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури доирасида амалга оширилади.

4. Мелиоратив объектларни тизимли таъмирлаш ва тиклаш (мелиоратив объектларнинг лойиҳавий параметрларини таъминлаш, шунингдек, ҳар хил чўкиндилар, ўсимлик ва буталардан тозалаш, ён қияликлардаги емирилишларни тиклаш, ювиш, иншоотларни ва ўрнатилган қурилмаларни таъмирлашга мўлжалланган ишлар) лойиҳалари Вазирлар Маҳкамасининг тегишли йиғилиш баёни билан тасдиқланадиган манзилли дастур (кейинги ўринларда — манзилли дастур) асосида амалга оширилади.

Манзилли дастурга ҳудудлардаги мелиоратив объектларнинг (шу жумладан, кластер, фермер хўжаликлари ҳамда туман марказлари ва шаҳарлар ҳудудидан ўтган коллектор-дренаж тармоқлари) техник ҳолатини яхшилашни назарда tutувчи тизимли таъмирлаш-тиклаш ишлари киритилади.

5. Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича чора-тадбирларининг прогноз параметрлари Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар ҳудудий дастурлари (кейинги ўринларда — ҳудудий дастур) асосида шакллантирилади.

6. Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш дастурлари ушбу Низомга иловада* келтирилган схемага мувофиқ шакллантирилади ва амалга оширилади.

7. Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш тадбирлари доирасида мелиоратив объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ҳамда таъмирлаш-тиклашга доир харажатлар Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетидан ва вилоятларнинг вилоят бюджетларидан, шунингдек, қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади.

2-боб. Ҳудудий дастурларни шакллантириш

8. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси ва вилоятлар ҳокимлари томонидан келгуси йил ҳудудий дастурларини шакллантириш учун ҳар йили 15 январга қадар ҳудудий ва туман ишчи гуруҳлари тузилади.

Ҳудудий ишчи гуруҳлар таркибига:

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раисининг ҳамда вилоятлар ҳокимларининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосарлари — вилоят қишлоқ хўжалиги бошқарма бошлиқлари ёки уларнинг биринчи ўринбосарлари (ишчи гуруҳ раҳбари);

Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва ирригация тизимлари ҳавза бошқарма бошлиқлари ёки уларнинг биринчи ўринбосарлари;

Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва ирригация тизимлари ҳавза бошқармалари ҳузуридаги Мелиоратив экспедициялар бошқармалари (кейинги ўринларда — Мелиоратив экспедициялар) бошлиқлари;

Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва ирригация тизимлари ҳавза бошқармалари ҳузуридаги насос станциялари ва энергетика бошқармалари (кейинги ўринларда — насос станциялари ва энергетика бошқармалари) бошлиқлари;

* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги Сув хўжалиги лойиҳаларини амалга ошириш департаментининг (кейинги ўринларда — Департамент) ҳудудий «Сувқурилишинвест» давлат муассасалари (кейинги ўринларда — «Сувқурилишинвест» ДМ) директорлари;

лойиҳалаштириш ва илмий-тадқиқот ташкилотларининг масъул ходимлари (лойиҳа бош муҳандиси);

Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар Фермерлари кенгаши раислари ҳамда бошқа манфаатдор ташкилотлар вакиллари киритилади.

Туман (шаҳар) ишчи гуруҳлари таркибига:

туман (Қувасой шаҳар) ҳокимининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосарлари — туман қишлоқ хўжалиги бўлимлари бошлиқлари (ишчи гуруҳ раҳбари);

туман (Қувасой шаҳар) «Сув етказиб бериш хизмати» давлат муассасалари директорлари;

мелиоратив экспедициянинг туман бўлимлари масъул ходимлари;

насос станциялари ва энергетика бошқармасининг туман бўлимлари масъул ходимлари;

лойиҳалаштириш ва илмий-тадқиқот ташкилотларининг масъул ходимлари;

туман (Қувасой шаҳар) Фермерлар кенгаши ва бошқа манфаатдор туман (Қувасой шаҳар) ташкилотлари вакиллари киритилади.

Мелиоратив экспедициялар ишчи гуруҳларнинг ишчи органи ҳисобланади.

9. Мелиоратив экспедицияларнинг туман бўлимлари томонидан ҳар йили 15 февралга қадар қуйидагиларни назарда тутадиган материаллар тайёрланади ва туман (Қувасой шаҳар) ишчи гуруҳига кўриб чиқиш учун тақдим этилади:

мелиорация кадастри асосида мелиоратив объектлар ва уларнинг техник параметрлари кўрсатилган схематик хариталар;

мелиоратив объектларнинг хизмат кўрсатиш майдони (туман марказлари, шаҳар ва аҳоли яшаш пунктлари, фермер хўжаликлари ва бошқа сув истеъмолчилари ҳудудларига хизмат кўрсатадиган майдон) ва унинг таркибига кирувчи алоҳида гидротехника иншоотлари;

лойиҳа ҳудудидаги суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолати тўғрисидаги бошқа маълумотлар;

мелиоратив объектларни қуриш ва реконструкция қилиш ҳамда тизимли таъмирлаш ва тиклаш бўйича лойиҳаларнинг манзилли рўйхати;

ҳар бир лойиҳа учун аннотация, нуқсон далолатномаси, харита ва паспорт (асосий кўрсаткичлар);

мелиоратив объектларнинг техник ҳамда суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича таклифлар.

10. Туман (Қувасой шаҳар) ишчи гуруҳи тақдим этилган материаллар асосида агрокластер, фермер ва деҳқон хўжаликлари вакиллари билан биргаликда объектларнинг ҳолати, ерларнинг шўрлангани, сизот сувлари сатҳи ва минераллашувини ўрганади, лойиҳаларни муҳокама қилади ҳамда ҳар

йили 1 мартга қадар белгиланган тартибда халқ депутатлари туман (Қувасой шаҳар) Кенгашлари йиғилишларининг муҳокамасига киритади.

11. Халқ депутатлари туман (Қувасой шаҳар) Кенгашлари томонидан маъқулланган (тасдиқланган) манзилли рўйхатлар туман ишчи гуруҳи томонидан ҳар йили 10 мартга қадар ҳудудий ишчи гуруҳга тақдим этилади.

12. Ҳудудий ишчи гуруҳ халқ депутатлари туман (Қувасой шаҳар) Кенгашлари томонидан маъқуллаган манзилли рўйхат асосида келгуси йил учун янги объектларнинг ҳудудий дастурини ишлаб чиқади ва ҳар йили 1 апрелга қадар белгиланган тартибда Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоятлар Кенгашлари йиғилиши муҳокамасига киритади.

3-боб. Ҳудудий дастурларни кўриб чиқиш

13. Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва ирригация тизимлари ҳавза бошқармалари ҳар йили 5 апрелга қадар ҳудудий дастурлар ва қуйидаги ҳужжатларни кўриб чиқиш учун Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Сув хўжалиги объектларини эксплуатация қилиш агентлигига (кейинги ўринларда — Агентлик) тақдим этади:

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоятлар Кенгашлари томонидан ҳудудий дастурларни тасдиқлаш тўғрисидаги йиғилиш баённомалари;

ҳудуддаги суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолати тўғрисидаги таҳлилий маълумотнома, ҳар бир лойиҳанинг устуворлигини асослаш, лойиҳаларнинг дастлабки техник кўрсаткичлари ҳамда амалга оширишдан кутилаётган натижалар тўғрисидаги маълумотлар.

14. Агентлик тақдим этилган ҳудудий дастурлар асосида лойиҳалар рўйхатини таҳлил қилади ва ҳар йили 15 апрелга қадар Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлигига тақдим қилади.

15. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги лойиҳалар рўйхатини вазирликнинг сув хўжалиги масалалари бўйича Тармоқ илмий-техник кенгашида кўриб чиқиб, тасдиқланган ҳолда 1 майга қадар Иқтисодиёт ва молия вазирлигига киритади.

16. Мелиоратив объектларни қуриш ва реконструкция қилиш бўйича лойиҳалар Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 апрелдаги 206-сон қарори билан тасдиқланган Ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурини шакллантириш тартиби тўғрисидаги низом талаблари асосида кўриб чиқилади.

17. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги мелиоратив объектларни тизимли таъмирлаш ва тиклаш бўйича манзилли дастур лойиҳасини Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишган ҳолда 1 июнга қадар Вазирлар Маҳкамасига кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун киритади.

**4-боб. Дастурларга киритилган лойиҳаларнинг лойиҳаолди
ва лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ҳамда
экспертизадан ўтказиш**

18. «Сувқурилишинвест» ДМ мелиоратив объектларни қуриш, реконструкция қилиш ҳамда тизимли таъмирлаш ва тиклаш ишлари бўйича буюртмачи ҳисобланади.

19. «Сувқурилишинвест» ДМ Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва ирригация тизимлари ҳавза бошқармалари ҳамда Мелиоратив экспедициялар билан келишган ҳолда лойиҳаларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун техник топшириқларни тайёрлайди.

Бунда:

мелиоратив объектларни қуриш ва реконструкция қилиш бўйича ишлаб чиқилган техник топшириқлар Агентлик ва Департамент билан келишилади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги томонидан;

мелиоратив объектларни тизимли таъмирлаш ва тиклаш бўйича ишлаб чиқилган техник топшириқлар Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раисининг ва вилоятлар ҳокимларининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосари (бўлмаганда бошқа ўринбосари) томонидан тасдиқланади.

20. «Сувқурилишинвест» ДМ лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқувчи ташкилотни белгиланган тартибда танлов ўтказиш орқали аниқлайди.

21. Мелиоратив объектларни қуриш ва реконструкция қилиш, тизимли таъмирлаш ва тиклаш бўйича ишчи лойиҳа (лойиҳа-смета) ҳужжатлари лойиҳа ташкилотлари томонидан ишлаб чиқилади ва «Сувқурилишинвест» ДМга тақдим этилади.

22. «Сувқурилишинвест» ДМ лойиҳа-смета ҳужжатларининг Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ва ирригация тизимлари ҳавза бошқармаларининг техник кенгашларида кўриб чиқилишини ҳамда келишилишини ташкил қилади.

23. Лойиҳа ҳужжатлари (техник-иқтисодий ҳисоб-китоблар, лойиҳа-смета ҳужжатлари, ишчи лойиҳалар ва иш ҳужжатлар) «Шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертиза қилиш республика маркази» ДМ ҳамда «Лойиҳалар ва импорт контрактларини комплекс экспертиза қилиш маркази» ДУК (ёки тегишли экспертиза органлари) томонидан белгиланган тартибда экспертизадан ўтказилади.

Лойиҳа ҳужжатлари заруратга кўра ихтисослаштирилган мустақил компаниялар (ёки экспертлар) томонидан қўшимча экспертизадан ўтказилиши мумкин.

**5-боб. Тугалланган объектларда ишларни қабул
қилиб олиш**

24. Мелиоратив объектларни қуриш, реконструкция қилиш, тизимли таъмирлаш ва тиклаш бўйича тугалланган лойиҳалар шаҳарсозлик нормала-

ри ва қоидалари асосида ишчи ҳамда Давлат қабул қилиш ҳайъати томонидан фойдаланишга қабул қилинади.

Бунда тизимли таъмирлаш ва тиклаш ишлари амалга оширилган объектларда ўрнатилган янги конструкциялар ва асбоб-ускуналар қиймати «Сувқурилишинвест» ДМ томонидан авизо орқали объектдан фойдаланувчи ташкилотга топширилади.

25. Мелиоратив объектларни қуриш, реконструкция қилиш, таъмирлаш ва тиклаш бўйича тугалланган лойиҳаларни фойдаланишга қабул қилиш ишчи ҳайъати таркиби «Сувқурилишинвест» ДМ томонидан тасдиқланади.

26. Давлат қабул қилиш ҳайъати таркиби:

мелиоратив объектларни қуриш бўйича тугалланган лойиҳаларни фойдаланишга қабул қилиш Ўзбекистон Республикаси сув хўжалиги вазирининг буйруғи билан;

мелиоратив объектларни реконструкция қилиш, тизимли таъмирлаш ва тиклаш бўйича тугалланган лойиҳаларни фойдаланишга қабул қилиш Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазири ва ирригация тизимлари ҳавза бошқарма бошлиқларининг буйруғи билан тасдиқланади.

6-боб. Якунловчи қоида

27. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 30 июндаги 401-сон қарорига
2-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз кучини йўқотган
деб ҳисобланаётган айрим қарорлари
РЎЙХАТИ**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш дастурларини шакллантириш ва амалга оширишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2008 йил 28 ноябрдаги 261-сон қарори.

2. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Қишлоқ ва сув хўжалигида иқтисодий ислохотлар чуқурлаштирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» 2009 йил 25 декабрдаги ЎРҚ–240-сон Қонуни)» 2011 йил 18 февралдаги 40-сон қарорига илованинг 8-банди.

3. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2007 йил 29 октябрдаги ПФ–3932-сон Фармонида қўшимча ва ўзгартишлар киритиш тўғрисида» 2013 йил 19 апрелдаги ПФ–4533-сон Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2013 — 2017 йиллар даврида суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2013 йил 19 апрелдаги ПҚ–1958-сон қарори)» 2013 йил 28 июндаги 185-сон қарори.

4. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзмелиомашлизинг» давлат унитар корхонасининг уставини тасдиқлаш тўғрисида» 2017 йил 5 декабрдаги 969-сон қарорига 2-илова.

5. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан самарали фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 9 октябрдаги ПФ–5199-сон Фармони)» 2017 йил 26 декабрдаги 1021-сон қарорига илованинг 11-банди.

6. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қишлоқ ва сув хўжалиги давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПФ–5418-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси

Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПҚ–3671-сон қарори, «Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПҚ–3672-сон қарори)» 2018 йил 7 декабрдаги 995-сон қарорига 1-илова-нинг 55-банди.

7. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида» 2021 йил 20 апрелдаги ЎРҚ–682-сон Қонуни)» 2022 йил 4 апрелдаги 153-сон қарорига илова-нинг 200-банди.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ**332** Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини таъминлаш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2025 йил 8 майдаги ПФ–85-сон Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини таъминлаш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2025 йил 8 майдаги ПФ–85-сон Фармонига мувофиқ 2025 йил 1 июндан бошлаб Ижтимоий ҳимоя давлат жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) маблағлари ҳисобидан:

I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилган ҳамда уларга сурдотаржимон, психолог ва ҳамроҳлик хизматини ташкил қилган тадбиркорлик субъектларига уларнинг харажатларини қоплаш мақсадида 50 миллион сўмгача субсидия ажратиш;

Қорақалпоғистон Республикаси, Андижон, Қашқадарё, Наманган, Самарқанд, Сурхондарё ва Фарғона вилоятларида, 2026 йил 1 январдан бошлаб республиканинг қолган ҳудудларида I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларни камида 3 ой давомида расмий иш билан банд қилиш ҳамда уларга меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 2 бараваридан кам бўлмаган миқдордаги иш ҳақи тўлаш шартларига бир вақтда жавоб берадиган меҳнат шaroитлари асосида ишга қабул қилган ёки шундай шартлардаги ишга жойлашишига кўмаклашган тадбиркорлик субъектларига 500 миллион сўмгача субсидия ажратиш тартиби йўлга қўйилиши белгиланганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Ногиронлиги бўлган шахслар бандлигини таъминлашга кўмаклашиш, уларнинг бандлигини таъминлаш ҳамда меҳнат қилишини қўллаб-қувватлашни рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низом иловага мувофиқ тасдиқлансин.

3. Белгилансинки:

а) Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) томонидан «Ягона миллий ижтимоий ҳимоя» ахборот тизимида (кейинги ўринларда — «ЯМИХ» АТ) «Ногиронлиги бўлган шахслар бандлигига кўмаклашиш электрон реестри» ахборот модули (кейинги ўринларда — электрон реестр) юритилади. Бунда:

тадбиркорлик субъектларига электрон реестр орқали ўзларида мавжуд бўш (вакант) иш ўринлари тўғрисидаги маълумотларни киритиш, маълум бир йўналиш ёки мутахассислик бўйича талабга мос ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилиш ҳақида эълон бериш, шунингдек ногиронлиги бўлган шахсларнинг маълумотлари билан танишиб чиқиб, ўзларига маъқул

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 3 июлда эълон қилинган.

келган шахсларни бевосита ишга қабул қилиш ёки бандлигини таъминлашга кўмаклашиш имкониятлари яратилади;

электрон реестрга ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахслар «Инсон» ижтимоий хизматлар марказлари, «ЯМИХ» АТ ва Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда — ЯИДХП) орқали берилган муружаатлар асосида киритилади;

«Инсон» ижтимоий хизматлар марказларининг ижтимоий ходимларига ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахсларнинг розилиги асосида уларнинг номидан электрон реестрга киритиш учун электрон шаклда ариза бериш ҳуқуқи берилади;

б) Агентликка ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахслар ҳамда иш берувчиларни излаш бўйича интерактив хизматларини кўрсатувчи тадбиркорлик субъектларини тўғридан-тўғри жалб қилишга рухсат этилади.

Бунда тадбиркорлик субъектларига интерактив хизматларини кўрсатиш учун электрон реестрга киритилган ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахслар тўғрисидаги маълумотларни «Рақамли ҳукумат» тизимининг Рақамли маълумотлар платформаси орқали тақдим этганлик учун тўлов ундирилмайди.

4. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат ҳуқуқларини рўёбга чиқаришда нодавлат нотижорат ташкилотларининг самарали иштирокини таъминлаш учун тадбиркорлик субъектларида бандлиги таъминланган ногиронлиги бўлган шахслар учун сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматлари Агентлик ёки унинг ҳудудий бошқармалари томонидан бериладиган давлат ижтимоий буюртмаси орқали нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан ҳам кўрсатилишига рухсат берилсин. Бунда:

нодавлат нотижорат ташкилотларига бериладиган давлат ижтимоий буюртмасининг қиймати тадбиркорлик субъектида йўлга қўйилган хизматлар учун ушбу қарорда белгиланган миқдорлардан келиб чиққан ҳолда аниқланади;

ногиронлиги бўлган шахслар учун сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматларини нодавлат нотижорат ташкилотлари орқали йўлга қўйилган тадбиркорлик субъектларига субсидия ажратилмайди.

5. Агентлик уч ой муддатда ногиронлиги бўлган шахсларни жамият ҳаётида тўлақонли иштирок этишини таъминлаш мақсадида ушбу шахсларнинг транспорт хизматларидан фойдаланишида қулай ва тўсиқсиз муҳит яратишга қаратилган Тошкент тажрибасини жорий этиш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

6. Агентлик Рақамли технологиялар вазирлиги билан биргаликда:

а) бир ой муддатда:

электрон реестр ишга туширилиши ҳамда «Рақамли ҳукумат» тизимининг идоралараро интеграциялашув платформаси орқали вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимлари билан интеграция қилинишини таъминласин;

«ЯМИХ» АТда электрон реестрга киритилган ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилган иш берувчилар ёки уларнинг бандлигига кўмаклашган тадбиркорлик субъектлари реестри юритилишини йўлга қўйсин;

б) икки ой муддатда ЯИДХП орқали мазкур қарорда назарда тутилган мақсадларда мурожаат қилиш имкониятини яратсин.

7. Вазирлар Маҳкамасининг «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигига кўмаклашишни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2022 йил 20 апрелдаги 203-сон қарорининг 1 ва 2-бандлари ҳамда унга 1-илова ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

8. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — иқтисодиёт ва молия вазири Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 1 июль,
405-сон

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 1 июлдаги 405-сон қарорига
ИЛОВА

**Ногиронлиги бўлган шахслар бандлигини таъминлашга
кўмаклашиш, уларнинг бандлигини таъминлаш ҳамда
меҳнат қилишини қўллаб-қувватлашни рағбатлантириш
тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом «Ногиронлиги бўлган шахслар бандлигига кўмаклашиш электрон реестри» ахборот модулини (кейинги ўринларда — электрон реестр) юритиш, ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат қилиш ҳуқуқларини рўёбга чиқаришга кўмаклашиш, уларни иш берувчилар билан ўзаро боғлаш, шунингдек I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар бандлигини таъминлаган ёки бандлигини таъминлашга кўмаклашган ҳамда ушбу шахсларнинг меҳнат қилишини қўллаб-қувватлаган тадбиркорлик субъектлари ҳамда хусусий бандлик ташкилотларига (кейинги ўринларда — тадбиркорлик субъектлари) Ижтимоий ҳимоя давлат жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) маблағлари ҳисобидан қуйидаги давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чораларини тақдим этиш тартибини белгилайди:

I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларни тўғридан-тўғри расмий ишга қабул қилган тадбиркорлик субъектларига ёки уларни иш берувчиларда мавжуд бўш (вакант) иш ўринларига жойлаштиришга кўмаклашган хусусий бандлик ташкилотларига субсидия (кейинги ўринларда — бандликка кўмаклашиш субсидияси) ажратиш;

I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилиб,

уларнинг самарали меҳнат қилишини қўллаб-қувватлашга қаратилган махсус хизматларни (сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизмати) йўлга қўйган тадбиркорлик субъектларига ушбу хизматларни йўлга қўйиш билан боғлиқ харажатларини қоплаш учун хизмат туридан келиб чиқиб субсидия (кейинги ўринларда — иш ўринларига мослаштириш субсидияси) ажратиш.

2. Электрон реестр Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) томонидан «Ягона миллий ижтимоий ҳимоя» ахборот тизимида (кейинги ўринларда — «ЯМИХ» АТ) юритилади.

Электрон реестрда ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахсларнинг соғлигининг ҳолати, таълим ва меҳнат фаолиятига доир маълумотлар (кейинги ўринларда — маълумотлар) ҳамда бандлигини таъминлаш бўйича амалга оширилган чора-тадбирлар тўғрисидаги барча маълумотлар (кейинги ўринларда — ногиронлиги бўлган шахснинг бандлик тарихи) акс эттириб борилади.

3. Тадбиркорлик субъектлари томонидан ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахслар ҳақида маълумотлар электрон реестрдан бепул олинади.

4. Тадбиркорлик субъектларига ушбу Низомнинг 1-бандида назарда тутилган субсидиялар ушбу Низомга 1-иловага* мувофиқ схема асосида ажратилади.

2-боб. Ногиронлиги бўлган шахслар бандлигини таъминлаш ёки бандлигини таъминлашга кўмаклашиш тартиби

5. Тадбиркорлик субъектлари электрон реестрга ўзларида мавжуд бўш (вакант) иш ўринлари тўғрисидаги маълумотларни киритиш, маълум бир йўналиш ёки мутахассислик бўйича талабга мос ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилиш ҳақида эълон бериш, шунингдек ногиронлиги бўлган шахсларнинг маълумотлари билан танишиб чиқиб, ўзларига маъқул келган шахслар бандлигини таъминлашга кўмаклашиш мақсадида «ЯМИХ» АТда электрон офертани тасдиқлаш орқали бепул ва ихтиёрий асосда авторизациядан ўтади. Бунда хусусий бандлик ташкилотлари ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигини таъминлашга кўмаклашувчи сифатида авторизациядан ўтади.

Тадбиркорлик субъектлари томонидан «ЯМИХ» АТда авторизациядан ўтишда қуйидаги маълумотлар кўрсатилади ҳамда электрон рақамли имзо (кейинги ўринларда — ЭРИ) ёки «ЯМИХ» АТда ягона идентификация тизими (OneID) орқали тасдиқланади:

юридик шахслар учун солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР), телефон рақами, манзили, ишончли вакил ҳақидаги маълумотлар;

якка тартибдаги тадбиркорлар учун биометрик паспорт (идентификацияловчи ID-карта) маълумотлари, жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақами (ЖШШИР), телефон рақами, манзили, ишончли вакил ҳақидаги маълумотлар.

Тадбиркорлик субъектлари томонидан кўрсатилган маълумотлар тўғри-

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

лиги ҳамда уларнинг фаолияти тугатилмаганлиги аниқланган тақдирда, улар учун «ЯМИХ» АТда шахсий кабинет очилади.

6. Тадбиркорлик субъектлари қуйидаги усулларда ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигига кўмаклашади:

а) электрон реестрга ушбу Низомга 2-иловага* мувофиқ шаклда ўзларида мавжуд бўш (вакант) иш ўринлари тўғрисидаги маълумотларни киритиш орқали;

б) электрон реестрда маълум бир йўналиш ёки мутахассислик бўйича ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилиш тўғрисида эълон бериш орқали;

в) электрон реестрга киритилган ногиронлиги бўлган шахсларнинг маълумотлари билан танишиб чиқиб, ўзларига маъқул келган шахсларни танлаган ҳолда, уларни бевосита ишга қабул қилиш ёки бандлигини таъминлашга кўмаклашиш бўйича сўровнома юбориш орқали.

Бунда хусусий бандлик ташкилотлари мазкур банднинг «в» кичик бандида белгиланган усулда электрон реестрга киритилган ногиронлиги бўлган шахсларни маълум бир иш берувчиларда мавжуд бўш (вакант) иш ўринларига ишга жойлаштириш орқали уларнинг бандлигига кўмаклашиши мумкин.

7. Ногиронлиги бўлган шахс ушбу Низомнинг 6-банди «а» кичик бандига мувофиқ тадбиркорлик субъектлари томонидан киритилган бўш (вакант) иш ўринлари тўғрисидаги маълумотлар билан танишиб чиқиб, ўзига маъқул келган иш ўрнига ишга жойлашиш бўйича сўровнома юбориши мумкин.

Бунда тадбиркорлик субъектлари томонидан ўзларида мавжуд бўш (вакант) иш ўринлари тўғрисидаги маълумотлар заруратга кўра доимий янгилаб борилади.

8. Ногиронлиги бўлган шахслар томонидан юборилган сўровнома тадбиркорлик субъектига унинг «ЯМИХ» АТдаги шахсий кабинетига кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун юборилади. Бунда сўровнома тадбиркорлик субъекти томонидан кўриб чиқилади ва тасдиқланади ёки аниқ сабабларини кўрсатган ҳолда рад этилади. Сўровнома тасдиқланган тақдирда, тадбиркорлик субъекти ва ногиронлиги бўлган шахс ўртасида меҳнат шартномаси расмийлаштирилади.

9. Тадбиркорлик субъектлари томонидан ушбу Низомнинг 6-банди «б» кичик бандига мувофиқ эълон берилган тақдирда, «ЯМИХ» АТ томонидан автоматик равишда тадбиркорлик субъектлари талабига мос келадиган электрон реестрда мавжуд ногиронлиги бўлган шахслар тўғрисидаги маълумотлар уларнинг «ЯМИХ» АТдаги шахсий кабинетига хабарнома шаклида юборилади. Бунда:

тадбиркорлик субъектлари томонидан хабарномада кўрсатилган ногиронлиги бўлган шахслардан ўзларига маъқул келган шахсларни ишга қабул қилиш бўйича сўровнома шакллантирилади ҳамда кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун мазкур шахсларга СМС-хабарнома ёки «ЯМИХ» АТдаги шахсий кабинети орқали юборилади;

сўровнома ногиронлиги бўлган шахс томонидан кўриб чиқилади ва тас-

* 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

диқланади ёки аниқ сабабларини кўрсатган ҳолда рад этилади. Сўровнома тасдиқланган тақдирда, тадбиркорлик субъекти ва ногиронлиги бўлган шахс ўртасида меҳнат шартномаси расмийлаштирилади.

10. Тадбиркорлик субъектлари ушбу Низом 6-бандининг «в» кичик бандига мувофиқ электрон реестрдаги ногиронлиги бўлган шахсларнинг маълумотлари билан танишиб чиқиб, ўзларига маъқул келган шахсларни танлаб, уларни бевосита ишга қабул қилиш ёки бандлигини таъминлашга кўмаклашиш бўйича сўровнома юбориши мумкин. Бунда:

сўровнома ногиронлиги бўлган шахсга СМС-хабарнома ёки «ЯМИХ» АТ-даги шахсий кабинетига орқали танишиб чиқиш ва тасдиқлаш учун йўналтирилади;

электрон реестрга киритилган битта ногиронлиги бўлган шахс бўйича бир нечта тадбиркорлик субъекти томонидан уни бевосита ишга қабул қилиш ёки хусусий бандлик ташкилотлари томонидан бандлигини таъминлашга кўмаклашиш бўйича сўровнома юборилиши мумкин.

11. Ушбу Низомнинг 10-бандига мувофиқ юборилган сўровномада тадбиркорлик субъектининг фаолият тури, таклиф этилаётган лавозим номи ва лавозим мажбуриятлари ҳамда ойлик иш ҳақи миқдори тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилади.

Агар сўровнома хусусий бандлик ташкилотлари томонидан юборилган бўлса, унда ушбу банднинг биринчи хатбошисида кўрсатилган маълумотларга қўшимча равишда ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилувчи иш берувчи тўғрисидаги маълумотлар ҳам кўрсатилади.

12. Сўровнома хусусий бандлик ташкилотлари томонидан юборилган тақдирда, у дастлаб унда кўрсатилган иш берувчининг «Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплексидаги (кейинги ўринларда — «ЯММТ» ИДАК) шахсий кабинетига танишиб чиқиш ва маъқуллаш учун йўналтирилади.

Иш берувчи сўровномада кўрсатилган ногиронлиги бўлган шахснинг маълумотлари билан танишиб чиқиб, уни ишга қабул қилишни тасдиқлаши ёки тасдиқлашни рад этиши мумкин.

Агар сўровнома иш берувчи томонидан тасдиқланган тақдирда, у танишиб чиқиш ва тасдиқлаш учун ногиронлиги бўлган шахсга йўналтирилади.

13. Ногиронлиги бўлган шахс томонидан сўровнома билан танишиб чиқилади ва тасдиқланади ёки рад этишнинг аниқ сабабларини белгилаган ҳолда рад этилади.

Сўровнома ногиронлиги бўлган шахс томонидан тасдиқланганидан сўнг тадбиркорлик субъекти ва ногиронлиги бўлган шахс ўртасида ёки хусусий бандлик ташкилотининг сўровномасида кўрсатилган иш берувчи ва ногиронлиги бўлган шахс ўртасида меҳнат шартномаси расмийлаштирилади.

14. Ушбу Низомга мувофиқ ногиронлиги бўлган шахслар билан меҳнат шартномаси расмийлаштирилганда, бу тўғрисидаги маълумотлар автоматик равишда «ЯММТ» ИДАКдан электрон реестрга юборилади.

15. Қуйидаги ҳолатлар юзага келганда электрон реестрга киритилган но-

гиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилиш ёки бандлигини таъминлашга кўмаклашиш бўйича сўровномани юбориш имконияти чеклаб қўйилади:

ногиронлиги бўлган шахс расмий банд бўлганда;

ногиронлиги бўлган шахсга нисбатан озодликдан маҳрум этиш жазоси тайинланганда;

ногиронлиги бўлган шахсни муомалага лаёқатсиз ёки муомалага лаёқати чекланган деб топиш тўғрисидаги суднинг қарори қонуний кучга кирганда.

Бунда мазкур бандда кўрсатилган ҳолатлар тўғрисидаги маълумотлар «Рақамли ҳукумат» тизимининг идоралараро интеграциялашув платформаси орқали вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларидан ҳар ойда бир маротаба сўров юбориш орқали олинади.

16. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлиги ҳолати ва уларга ҳисобланган иш ҳақи тўғрисидаги маълумотлар «Рақамли ҳукумат» тизимининг идоралараро интеграциялашув платформаси орқали реал вақт режимида олинади ҳамда ушбу маълумотлар ногиронлиги бўлган шахснинг бандлик тарихида акс эттирилади.

17. Ушбу Низомга мувофиқ ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигига кўмаклашиш бўйича юбориладиган сўровномалар ва хабарномалар «ЯМИХ» АТ томонидан автоматик равишда, ногиронлиги бўлган шахслар амалда яшайдиган жойдаги «Инсон» ижтимоий хизматлар марказлари (кейинги ўринларда — «Инсон» маркази)га йўналтириб борилади.

3-боб. Бандликка кўмаклашиш субсидиясини ажратиш тартиби

18. Бандликка кўмаклашиш субсидияси ушбу Низомга 3-иловага* мувофиқ электрон реестрда турган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсни камида 3 ой давомида узлуксиз расмий бандлигини таъминлаган ҳамда мазкур даврда унга ҳар ойда меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 2 бараваридан кам бўлмаган миқдорда иш ҳақи тўлаган ёки ушбу шартларда иш ўринларига жойлаштиришга кўмаклашган тадбиркорлик субъектларига ажратилади.

19. Тадбиркорлик субъектлари ушбу Низомнинг 18-бандида белгиланган шартларни бажарилгандан ёки бажарилиши таъминлангандан кейин «ЯМИХ» АТ ёки Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда — ЯИДХП) орқали бандликка кўмаклашиш субсидиясини олиш учун ушбу Низомга 4-иловага* мувофиқ шаклда электрон сўровномани тўлдириш орқали мурожаат қилади. Бунда:

сўровнома ЭРИ ёки ягона идентификация тизими (OneID) орқали тасдиқланади;

бандликка кўмаклашиш субсидияси олиш учун ЯИДХП орқали мурожаат қилинганда, мурожаат автоматик равишда «ЯМИХ» АТга йўналтирилади.

20. Тадбиркорлик субъектларининг мурожаати келиб тушгандан сўнг икки иш куни ичида ушбу Низомнинг 18-бандида белгиланган шартлар бажарилганлиги «ЯМИХ» АТда «Рақамли ҳукумат» тизими идоралараро интегра-

* 3-4-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

циялашув платформаси орқали тегишли вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларида мавжуд қуйидаги маълумотлар асосида ўрганилади:

электрон реестрда бандлиги таъминланган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахс тўғрисидаги маълумотларнинг мавжудлиги;

«ЯММТ» ИДАК бандлиги таъминланган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахс билан тузилган меҳнат шартномасининг рўйхатдан ўтказилганлиги;

Солиқ қўмитасининг ахборот тизимларида бандлиги таъминланган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсга унинг бандлиги таъминлангандан сўнг уч ой мобайнида ушбу Низомнинг 18-бандида белгиланган миқдордаги иш ҳақи ҳисобланганлиги.

21. «ЯМИХ» АТда ушбу Низомнинг 18-бандида назарда тутилган шартлар бажарилганлиги ёки бажарилиши таъминланганлиги тўғрисидаги маълумотлар аниқланганда, мурожаат қилган тадбиркорлик субъектига бандликка қўмаклашиш субсидияси ажратилиши тасдиқланади. Бунда ажратиладиган субсидиянинг миқдори тадбиркорлик субъектининг сўровномасида кўрсатилган ва ушбу Низомнинг 18-бандида белгиланган шартлар бажарилган ҳолда бандлиги таъминланган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар сонидан келиб чиққан ҳолда «ЯМИХ» АТда автоматик равишда ҳисобланади.

Бандликка қўмаклашиш субсидияси миқдори ҳисобланганидан сўнг автоматик равишда «ЯМИХ» АТда электрон тўлов қайдномаси ва тўлов топшириқномаси шакллантирилиб, бандликка қўмаклашиш субсидиясини тадбиркорлик субъектига ажратиш учун Жамғармага юборилади.

22. Қуйидаги ҳолларда бандликка қўмаклашиш субсидиясини ажратиш рад этилади:

тадбиркорлик субъектининг сўровномасини ўрганиш жараёнида тегишли вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларидан ушбу Низомнинг 20-бандида назарда тутилган маълумотлар мавжудлиги аниқланмаганда;

тадбиркорлик субъекти томонидан бандлиги таъминланган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахс учун муқаддам бандликка қўмаклашиш субсидияси ажратилганлиги аниқланганда.

23. Жамғарма унга келиб тушган тўлов қайдномаси ва тўлов топшириқномаси асосида бандликка қўмаклашиш субсидияси маблағларини Жамғарманинг махсус ғазна ҳисобварағидан Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг ахборот тизимлари орқали тадбиркорлик субъектининг тижорат банкдаги ҳисобварағига автоматик равишда ўтказилади.

Бунда бандликка қўмаклашиш субсидияси тўлаб берилганлиги тўғрисидаги маълумотлар «ЯМИХ» АТда тадбиркорлик субъектларининг шахсий кабинетига электрон хабарнома кўринишида юборилади.

4-боб. Иш ўринларига мослаштириш субсидиясини ажратиш тартиби

24. Иш ўринларига мослаштириш субсидияси ушбу Низомга 5-иловага*

* 5-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

мувофиқ бандлиги таъминланган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар учун сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматини ташкил қилган тадбиркорлик субъектларининг ушбу хизматларни ташкил қилиш билан боғлиқ харажатларини қисман қоплаш мақсадида ажратилади. Бунда сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизмати қуйидаги ногиронлиги бўлган шахслар учун ташкил этилади:

клиник ташхиси Халқаро касалликлар ва саломатлик билан боғлиқ бўлган муаммолар таснифи (Ўзбекистон Республикасида фойдаланиш учун мослаштирилган V МКБ-10 класс) (кейинги ўринларда — МКБ-10) бўйича Н 90 — 90.8 бўлган II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар учун сурдотаржимон хизмати;

клиник ташхиси МКБ-10 бўйича Н 00 — 59.9, Q 10 — 15 ва S 07.8 бўлган кўзи ожизлик бўйича I гуруҳ ногиронлиги биринчи маротаба белгиланган шахслар, шунингдек клиник ташхисидан қатъи назар биринчи марта ногиронлар аравачасида ҳаракатланиши белгиланган ногиронлиги бўлган шахслар учун ҳамроҳлик хизмати;

клиник ташхисидан қатъи назар барча I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар учун психолог хизмати.

25. Тадбиркорлик субъектлари томонидан I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларни иш жараёнида қўллаб-қувватлаш учун жалб этилувчи сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматини кўрсатувчи шахслар (кейинги ўринларда — хизмат кўрсатувчи шахслар) «ЯМИХ» АТда юритиладиган Ногиронлиги бўлган шахслар меҳнатини қўллаб-қувватлаш хизматларини кўрсатувчи шахслар электрон рўйхатига (кейинги ўринларда — электрон рўйхат) киритилган жисмоний шахслар орасидан жалб этилади. Бунда:

а) сурдотаржимон ёки психолог хизматини кўрсатмоқчи бўлган шахслар мазкур соҳада олий маълумотга эга бўлишлари талаб этилади;

б) ҳамроҳлик хизмати қонунчиликда белгиланган тартибда ҳамроҳлик хизматини кўрсатиш бўйича ўзини ўзи банд қиладиган шахс сифатида рўйхатдан ўтган шахсларни жалб этиш орқали йўлга қўйилади.

26. Хизмат кўрсатувчи шахслар электрон рўйхатга кириш учун «ЯМИХ» АТда қуйидаги маълумотларни кўрсатган ҳолда мурожаат юборади:

жисмоний шахснинг биометрик паспорт (идентификацияловчи ID-карта) маълумотлари ҳамда телефон рақами;

хизмат кўрсатмоқчи бўлган ҳудуд(лар) тўғрисидаги маълумотлар.

Тегишли маълумотлар киритилгандан сўнг мурожаат хизмат кўрсатувчи шахслар томонидан ягона идентификация тизими (OneID) орқали тасдиқланади.

27. Хизмат кўрсатувчи шахслар томонидан мурожаат тасдиқланганидан сўнг улар тўғрисидаги қуйидаги маълумотлар «ЯМИХ» АТда орқали автоматик равишда текширилади:

сурдотаржимон ёки психолог хизматини кўрсатувчи шахснинг мазкур соҳаларда олий маълумотга эга эканлигини — Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг ахборот тизимларидан;

ҳамроҳлик хизматини кўрсатувчи жисмоний шахснинг ўзини ўзи банд

қилган шахс сифатида рўйхатдан ўтганлиги — Солиқ қўмитасининг ахборот тизимларидан.

28. Текшириш натижасида хизмат кўрсатувчи шахслар тўғрисидаги ушбу Низомнинг 27-бандида назарда тутилган маълумотлар мавжудлиги аниқланган тақдирда, улар электрон рўйхатга киритилади.

Хизмат кўрсатувчи шахслар тўғрисидаги ушбу Низомнинг 27-бандида назарда тутилган маълумотларнинг мавжуд эмаслиги, уларни электрон рўйхатга киритишни рад этишга асос бўлади.

29. Тадбиркорлик субъектлари сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматини кўрсатувчи шахсларни тегишли хизматни кўрсатиш учун жалб этган ойдан кейинги ойнинг 16-санасига қадар иш ўринларига мослаштириш субсидиясини олиш учун «ЯМИХ» АТ ёки ЯИДХП орқали мустақил равишда ушбу Низомга 6-иловага* мувофиқ шаклдаги электрон сўровномани тўлдириш орқали мурожаат қилади. Бунда сўровнома ЭРИ ёки ягона идентификация тизими (OneID) орқали тасдиқланади.

30. Тадбиркорлик субъектларининг мурожаати келиб тушгандан сўнг икки иш кuni ичида «ЯМИХ» АТда «Рақамли ҳукумат» тизими идоралараро интеграциялашув платформаси орқали тегишли вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларида мавжуд қуйидаги маълумотлар асосида сўровномадаги маълумотларнинг тўғрилиги қуйидаги тартибда текширилади:

сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматини кўрсатувчи шахслар тўғрисидаги маълумотлар — «ЯМИХ» АТдаги электрон рўйхат орқали;

сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматини кўрсатувчи шахслар билан тузилган меҳнат ёки фуқаролик ҳуқуқий шартномаси маълумотлари ва унга мувофиқ амалга оширилган тўловлар миқдори — тегишлилиги бўйича «ЯММТ» ИДАК ва Солиқ қўмитасининг тегишли маълумотлар базалари орқали;

сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизмати кўрсатилаётган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар билан тузилган меҳнат шартномаси маълумотлари — «ЯММТ» ИДАК орқали;

сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизмати кўрсатилаётган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга иш ўринларига мослаштириш субсидияси ажратиладиган давр учун иш ҳақи тўланганлиги — Солиқ қўмитасининг тегишли маълумотлар базалари орқали.

31. Тадбиркорлик субъектининг мурожаатини кўриб чиқишда мазкур Низомнинг 30-бандида белгиланган маълумотлар аниқланган тақдирда, иш ўринларига мослаштириш субсидиясини ажратиш ёки рад этиш «ЯМИХ» АТ томонидан автоматик равишда тасдиқланади. Бунда:

иш ўринларига мослаштириш субсидиясини ажратиш тасдиқланган тақдирда, автоматик равишда «ЯМИХ» АТда электрон тўлов қайдномаси ва тўлов топшириқномаси шакллантирилиб, иш ўринларига мослаштириш субсидиясини тадбиркорлик субъектига ажратиш учун Жамғармага юборилади;

иш ўринларига мослаштириш субсидиясини ажратиш рад этилган тақдирда, рад этишнинг аниқ сабабларини кўрсатган ҳолда тадбиркорлик

* 6-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

субъектининг «ЯМИХ» АТ ёки ЯИДХПдаги шахсий кабинетига QR-код (матрик штрихли код) билан тасдиқланган хабарнома юборилади.

32. Иш ўринларига мослаштириш субсидиясининг миқдори «ЯМИХ» АТда ушбу Низомнинг 30 ва 31-бандларида назарда тутилган тадбирлар амалга оширилгандан сўнг, ушбу Низомга 5-иловага мувофиқ паспортда белгиланган миқдорда ҳисобланади ва мурожаат қилинган кундан бошлаб икки иш куни ичида тўланади. Бунда:

иш ўринларига мослаштириш субсидиясининг миқдори тадбиркорлик субъектининг сўровномасида кўрсатилган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар учун сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматини кўрсатаётган шахсларга тўланган тўловлар тўғрисидаги маълумотномада ёки электрон ҳисоб-фактурада кўрсатилган тўловлар миқдоридан қатъи назар, ушбу Низомга 5-иловага мувофиқ паспортда белгиланган миқдорда тўланади;

тадбиркорлик субъекти томонидан иш ўринларига мослаштириш субсидиясини олиш учун мурожаат қилинган давр учун сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизмати кўрсатилган I ва (ёки) II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга иш ҳақи тўланмаганлиги аниқланганда, ушбу хизматлар учун иш ўринларига мослаштириш субсидияси ҳисобланмайди.

33. Жамғарма ушбу Низомнинг 31-бандига мувофиқ келиб тушган тўлов қайдномаси ва тўлов топшириқномаси асосида иш ўринларига мослаштириш субсидияси маблағларини Жамғарманинг махсус ғазна ҳисобварағидан Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг ахборот тизимлари орқали тадбиркорлик субъектининг тижорат банкдаги ҳисобварағига автоматик равишда ўтказилади.

Бунда иш ўринларига мослаштириш субсидияси тўлаб берилганлиги тўғрисидаги маълумотлар «ЯМИХ» АТда тадбиркорлик субъектларининг шахсий кабинетига электрон хабарнома кўринишида юборилади.

5-боб. Якунловчи қоидалар

34. Ушбу Низомга мувофиқ ногиронлиги бўлган шахсларга СМС-хабарнома юбориш билан боғлиқ харажатлар Ижтимоий ҳимоя давлат жамғармаси маблағлари ва қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан қопланади.

35. Ишлаш истагидаги ногиронлиги бўлган шахслар ушбу Низомга 7-иловага* мувофиқ паспортда назарда тутилган тартибда электрон реестрга ихтиёрий асосда бепул киритилади.

36. Мазкур Низомда белгиланган тартибга мувофиқ тадбиркорлик субъекти бўлмаган бошқа иш берувчилар томонидан электрон реестрга киритилган ногиронлиги бўлган шахсларнинг маълумотлари билан танишиб чиқиш ва уларнинг бандлигига кўмаклашиши имкониятлари яратилади.

37. Иш берувчилар, шу жумладан, тадбиркорлик субъектлари ва хусусий бандлик ташкилотлари ҳамда «Инсон» маркази ушбу Низомга мувофиқ олинган шахсга доир маълумотларнинг қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ишлов берилиши ва сир сақланишини таъминлайди.

* 7-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

38. Мазкур Низомнинг 18-бандида белгиланган талабларни бажариш орқали бандликка қўмаклашиш субсидияси маблағларини олиш мақсадида тадбиркорлик субъектлари томонидан ўзлари томонидан банд қилинган ёки бандлигини таъминлашга қўмаклашилган ногиронлиги бўлган шахсларни иш ўринларига мослаштириш, зарурат бўлганда малакасини ошириш ва уларни ижтимоийлашувига қўмаклашиш чоралари кўриб борилади.

39. Ушбу Низом шартлари асосида бандликка қўмаклашиш субсидияси ёки иш ўринларига мослаштириш субсидиясини олаётган тадбиркорлик субъектлари қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ ногиронлиги бўлган шахслар бандлигига қўмаклашишга қаратилган бошқа турдаги субсидия ва имтиёзларни ҳам белгиланган тартибда олишга ҳақли.

40. «Инсон» маркази ходимлари, Ижтимоий инспекция ва унинг ҳудудий бўлинмалари ходимлари жойига чиққан ҳолда, ушбу Низомга мувофиқ ишга қабул қилинган ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳақиқатдан ишлаётганлигини, ногиронлиги бўлган шахсларга тегишлилиги бўйича сурдотаржимон, психолог ёки ҳамроҳлик хизматлари йўлга қўйилганлик ҳолатларини мониторинг қилиш ва улар билан суҳбатлашиб, иш ўринларидаги шароитлар билан танишишга ҳақли.

41. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

БЕШИНЧИ БЎЛИМ**О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

333 Maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo‘lgan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini hokim yordamchilarining onlayn buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3372-2*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF–70-son “2025-yil uchun xususiyashtirish dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-apreldagi 247-son “Bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2022-yil 6-iyundagi 170-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3372, 2022-yil 28-iyun) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.06.2022-y., 10/22/3372/0575-son) bilan tasdiqlangan Maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo‘lgan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini hokim yordamchilarining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

A. ORTIKOV

Toshkent sh.,
2025-yil 18-iyun,
01/7-11/40-son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2025-yil 17-iyun

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 1-iyulda e‘lon qilingan.

*Soliq qoʻmitasi raisi**Sh. KUDBIYEV**2025-yil 5-iyun*

O'zbekiston Respublikasi
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
direktorining 2025-yil 18-iyundagi
01/7-11/40-son buyrug'iga
ILOVA

Maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo'lgan bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini hokim yordamchilarining onlayn buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. 1-bandda:

beshinch xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi — sakkizinchi xatboshilar tegishli ravishda beshinchi — yettinchi xatboshilar deb hisoblansin;

yettinchi xatboshidagi “obyektini balansida saqlovchi davlat organlari, davlat tashkilotlari va davlat muassasalari” degan soʻzlar “obyekti birlashtirilgan yuridik shaxs” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

2. 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin

“4. Bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotish shartlari, agar qonunchilik hujjatlarida yoki Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasining qarorlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Agentlik yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan belgilanadi.”.

3. 8-bandda:

to'rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinch — yettinchi xatboshilar tegishli ravishda to'rtinchi — oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

beshinch xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasi va Agentlikning bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektidan kelgusida foydalanish bo'yicha qarori mavjud yoki mavjud emasligi;”.

4. 10-bandda:

to'rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to'rtinchi — to'qqizinchi xatboshilar tegishli ravishda uchinchi — sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat

aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasi va Agentlikning bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektidan kelgusida foydalanish bo'yicha qarori mavjud bo'lsa;"

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO‘MITASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGINING
QARORI

334 **Xalqaro temir yo‘l aloqalaridagi hisob-kitoblarda temir yo‘l ma‘muriyatlari o‘rtasidagi o‘zaro hisoblashishlar tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1696-1*

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi va “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi va Transport vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasining 2007-yil 30-maydagi 61, 2007-36 va 151-N-son qarori (ro‘yxat raqami 1696, 2007-yil 7-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 27-28-son, 291-modda) bilan tasdiqlangan Xalqaro temir yo‘l aloqalaridagi hisob-kitoblarda temir yo‘l ma‘muriyatlari o‘rtasidagi o‘zaro hisoblashishlar tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 11-iyun,
266-son

Soliq qo‘mitasi raisi

Sh. KUDBIYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 10-iyun,
2025-11-son

Transport vaziri

I. MAXKAMOV

Toshkent sh.,
2025-yil 30-may,
6-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 1-iyulda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil
11-iyundagi 266-son, Soliq qo'mitasining
2025-yil 10-iyundagi 2025-11-son va Transport
vazirligining 2025-yil 30-maydagi 6-son qaroriga
ILOVA

**Xalqaro temir yo'l aloqalaridagi hisob-kitoblarda temir yo'l
ma'muriyatlari o'rtasidagi o'zaro hisoblashishlar tartibi to'g'risida
nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom xalqaro temir yo'l aloqalarida temir yo'l tashishlari va hisob-kitoblarni tartibga soluvchi xalqaro bitimlar, shartnomalar va qoidalarda ishtirok etadigan “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda “O'zbekiston temir yo'llari” AJ deb yuritiladi) va boshqa temir yo'l ma'muriyatlari o'rtasidagi o'zaro hisoblashishlar tartibini belgilaydi.”.

2. 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Mazkur Nizom talablari “O'zbekiston temir yo'llari” AJning — Xalqaro yuk va yo'lovchi temir yo'l aloqalarida hisob-kitoblar qoidalari to'g'risida shartnoma, Xalqaro yuk va yo'lovchi temir yo'l aloqalarida hisob-kitoblar to'g'risida qoidalar, Xalqaro yo'lovchi aloqalari to'g'risida kelishuv, Xalqaro temir yo'l yuk aloqalari to'g'risida kelishuv, MDH, Gruziya, Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari temir yo'l ma'muriyatlari o'rtasidagi kompleks hisob-kitoblar qoidalari, boshqa davlatlar mulki bo'lgan yuk tashuvchi vagonlardan foydalanganlik uchun hisob-kitoblar, raqamli hisob va ekspluatatsiya qoidalari, Xalqaro aloqalarda vagonlardan foydalanish qoidalari va Xalqaro aloqalarda vagonlardan foydalanish qoidalari to'g'risida shartnoma, Iqtisodiy javobgarlik to'g'risida kelishuv va xalqaro temir yo'l aloqalaridagi hisob-kitoblarda temir yo'l ma'muriyatlari o'rtasidagi o'zaro hisoblashishlarni tartibga soluvchi boshqa xalqaro qoidalar va kelishuvlar (keyingi o'rinlarda matnda Xalqaro Qoidalar deb yuritiladi) ishtirokchilari bilan xalqaro temir yo'l aloqalaridagi hisoblashishlarni amalga oshirishda tatbiq qilinadi.”.

3. 2, 5, 6, 8, 11, 12, 19, 20, 26 va 35-bandlardagi “O'zbekiston temir yo'llari” DATK” degan so'zlar “O'zbekiston temir yo'llari” AJ” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4. 3, 27 va 29-bandlardagi “O'zbekiston temir yo'llari” DATKning” degan so'zlar “O'zbekiston temir yo'llari” AJning”ga almashtirilsin.

5. 32-band o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

6. VII bo'lim o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИСТИҚБОЛЛИ ЛОЙИХАЛАР МИЛЛИЙ
АГЕНТЛИГИ ДИРЕКТОРИНИНГ
БУЙРУҒИ

**335 Қимматли қоғозлар эмиссияси ва эмиссиявий қимматли
қоғозлар чиқарилишларини давлат рўйхатидан ўтказиш
қоидаларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида***

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил
30 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2000-12*

Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 7 февралдаги ЎРҚ–1025-сон «Корпоратив муносабатларнинг ҳуқуқий асослари янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси ҳузуридаги Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш маркази бош директорининг 2009 йил 16 июлдаги 2009-40-сон буйруғи (рўйхат рақами 2000, 2009 йил 30 август) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 36-сон, 394-модда) билан тасдиқланган Қимматли қоғозлар эмиссияси ва эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқарилишларини давлат рўйхатидан ўтказиш қоидаларига иловага мувофиқ ўзгартиришлар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Директор

Д. ЛИ

Тошкент ш.,
2025 йил 17 июнь,
9-сон

Келишилди:

Марказий банк раиси

Т. ИШМЕТОВ

2025 йил 12 июнь

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 1 июлда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги
директорининг 2025 йил 17 июндаги 9-сон
буйруғига
ИЛОВА

**Қимматли қоғозлар эмиссияси ва эмиссиявий қимматли
қоғозлар чиқарилишларини давлат рўйхатидан ўтказиш
қоидаларига киритилаётган ўзгартиришлар**

1. 1-бандда:
олтинчи хатбоши қўйидаги таҳрирда баён этилсин:
«корпоратив облигациялар — акциядорлик жамиятлари ва масъулия-
ти чекланган жамиятлар томонидан чиқариладиган облигациялар;»;
ўн тўртинчи хатбошидан «ва қўшимча масъулиятли» деган сўзлар чиқа-
риб ташлансин.
2. 40-банднинг учинчи хатбошисидан «ва қўшимча масъулиятли» деган
сўзлар чиқариб ташлансин.
3. 1а-илованинг «Изоҳлар» қисми 3-бандидан «ва қўшимча масъулиятли»
деган сўзлар чиқариб ташлансин.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT,
RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO‘MITASINING
QARORI

336 Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar va nitromastikalar ishlab chiqarish xodimlari uchun xavfsizlik qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2016-4*

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ–186-son “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 633-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2009-yil 7-sentabrdagi 169-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2016, 2009-yil 12-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 42-son, 452-modda) bilan tasdiqlangan Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar va nitromastikalar ishlab chiqarish xodimlari uchun xavfsizlik qoidalariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais

A. RAFIQOV

Toshkent sh.,
2025-yil 16-iyun,
8-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 1-iyulda e‘lon qilingan.

Kelishildi:

***Qurilish va uy-joy kommunal
xo'jaligi vaziri***

Sh. XIDOYATOV

2025-yil 28-may

***Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri***

B. ZAXIDOV

2025-yil 30-may

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat,
radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining
2025-yil 16-iyundagi 8-son qaroriga
ILOVA

**Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar
va nitromastikalar ishlab chiqarish xodimlari uchun xavfsizlik
qoidalariga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”.

2. 5, 6, 7, 14, 38 va 40-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. 16-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”.

4. 41-banddagi “O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitiga ega ishlar ro'yxatiga (ro'yxat raqami 1990, 2009-yil 29-iyul)” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatiga” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

5. 49-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“49. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash muassasasi bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim.”.

6. 51-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“51. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy

ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”.

7. 53-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“53. Majburiy tibbiy ko'riklar korxonalarga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa korxona joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi. Majburiy tibbiy ko'riklar davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.”.

8. 54 va 55-bandlardagi “tibbiy ko'rik” degan so'zlar “majburiy tibbiy ko'rik” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

9. 57-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

10. 61-banddagi “QMQ 2.03.13 “Pollar” degan so'zlar “SHNQ 2.03.13-24 “Pollar” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

11. 64-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

12. 68-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiyalash va konditsiyalash” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

13. 78-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“78. Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar va nitromastikalar ishlab chiqarish binolari va inshootlarining suv ta'minoti va kanalizatsiyasi SHNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish”, QMQ 2.04.02-19 “Suv ta'minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar”, GOST 12.3.006-75 “Suv quvurlari va kanalizatsiya inshootlari va tarmoqlaridan foydalanish. Umumiy xavfsizlik talablari”ga muvofiq bajarilishi lozim.”.

14. 83-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” degan so'zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

15. 96-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotning ma'muriy va maishiy binolari” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

16. 105-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiyalash va konditsiyalash” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

17. 126-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy

bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

18. 181-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“181. Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar va nitromastikalar ishlab chiqarishda atrof-muhitni agressiv taʼsiri darajasini baholash, yer ustidagi quvurlarning tashqi yuzasini, shuningdek, qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish SHNQ 2.03.11-24 “Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish” shaharsozlik normalari va qoidalari va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq metall va nometall himoya qoplamalar ishlatish bilan amalga oshiriladi.”.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT,
RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO'MITASINING
QARORI

337 “Yuk ko'targich (minora)larni o'rnatish va ulardan
foydalanishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash
to'g'risida”gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2313-3*

O'zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ–186-son “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 633-son “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2011-yil 30-noyabrdagi 268-son “Yuk ko'targich (minora)larni o'rnatish va ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 2313, 2012-yil 12-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 2-son, 23-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

A. RAFIQOV

Toshkent sh.,
2025-yil 16-iyun,
11-son

Kelishildi:

**Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**

B. ZAXIDOV

2025-yil 30-may

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 1-iyulda e'lon qilingan.

*Qurilish va uy-joy kommunal
xo'jaligi vaziri*

Sh. XIDOYATOV

2025-yil 28-may

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat,
radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining
2025-yil 16-iyundagi 11-son qaroriga
ILOVA

**“Yuk ko'targich (minora)larni o'rnatish va ulardan
foydalanishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi
buyruqqa kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Buyruq muqaddimasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida”gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-iyuldagi 153-son “Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**”.

2. Qoidalarda:

1) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

2) 5 va 12-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin;

3) 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.”;

4) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 14-banddagi “GOST 17.2.3.02-78” degan so'zlar “GOST 17.2.3.02-2014” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

6) 30-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar og'ir ishlarga hamda zararli va xavfli mehnat sharoiti mavjud ishlarga qabul qilinmasligi lozim.”;

7) 33 — 35-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“33. Tashkilot rahbariyati (yoki ish beruvchi) kasaba uyushmasi qo'mitasi

va vakolatli sogʻliqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy koʻrikdan oʻtishi lozim boʻlgan xodimlarning roʻyxatini tuzishi hamda xodimlarning koʻrikka kelishini taʼminlashi lozim.

34. Majburiy tibbiy koʻriklar tashkilotga tibbiy xizmatlar koʻrsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular boʻlmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan oʻtkaziladi.

35. Ish beruvchi majburiy tibbiy koʻrikdan oʻtmagan yoxud majburiy tibbiy koʻrik natijalariga koʻra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan boʻyin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 39-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” degan soʻzlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

9) 40-banddagi “SanQvaM 0203-06 “Ishlab chiqarish binolari mikroiklimi sanitariya meʼyorlari” degan soʻzlar “SanQvaN 0324-16 “Ishlab chiqarish xonalari mikroiklimining sanitariya-gigiyena normalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

10) 41-banddagi “QMQ II-89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” degan soʻzlar “SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

11) 47-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” degan soʻzlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

12) 48-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning maʼmuriy va maishiy binolari” degan soʻzlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

13) 58-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“58. Ish joylarida, xonalarda va tashkilot hududida shovqin va tebranishning darajasi SanQvaN 0325-16 “Ish joylarida shovqinning yoʻl qoʻyilgan darajasi sanitariya meʼyorlari”, SanQvaN 0326-16 “Ish joylarida umumiy va lokal tebranishning sanitariya meʼyorlari”, GOST 12.1.003-14 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Shovqin. Umumiy xavfsizlik talablari” va GOST 12.1.012-2004 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Tebranma xavfsizlik. Umumiy talablar” talablariga muvofiq boʻlishi kerak.”;

14) 61-banddagi QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” degan soʻzlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15) 67-banddagi “QMQ 2.04.01-98 “Binolarni ichki suv quvuri va kanalizatsiyasi” degan soʻzlar “SHNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

16) 72-banddagi “davlat sanitariya nazorati organlari” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-

epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining hududiy boshqarmalari yoki tuman (shahar) bo‘limlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

17) 73-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun’iy yoritish” degan so‘zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

18) 100-banddagi “GOST 9.401-91” degan so‘zlar “GOST 9.401-2018” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

338 Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3634*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-57-son "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Vazir

D. KUCHKAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 17-iyun,
267-son

Kelishildi:

Savdo-sanoat palatasi raisi

D. VAXABOV

2025-yil 26-may

**Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari
va qonuniy manfaatlarini himoya qilish
bo'yicha vakili o'rinbosari**

J. URUNOV

2025-yil 27-may

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 1-iyulda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil
17-iyundagi 267-son buyrug'iga
ILOVA

**Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha bojxona
organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Ushbu Nizom tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini aniqlashda bojxona organlari tomonidan dastlabki qarorni qabul qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

dastlabki qaror — tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlari qo'llanilishini aniqlash bo'yicha bojxona organi tomonidan qabul qilinadigan hujjat;

manfaatdor shaxs — O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlari qo'llanilishi bo'yicha dastlabki qarorni olish uchun murojaat qilgan shaxs;

bojxona organi — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining (bundan buyon matnda Bojxona qo'mitasi deb yuritiladi) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi;

bojxona yig'imi — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan stavkalarda dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun undiriladigan yig'im.

2. Dastlabki qarorni olish manfaatdor shaxs uchun ixtiyoriy hisoblanadi.

Bunda, bojxona organi tomonidan bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda manfaatdor shaxsdan dastlabki qarorni taqdim etishni talab qilishga, shuningdek dastlabki qarorning mavjud emasligini asos qilib, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

3. Manfaatdor shaxs tomonidan dastlabki qarorni olish yuzasidan bojxona organlariga erkin muomalaga chiqarish (import), vaqtincha olib kirish va eksport bojxona rejimlariga bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilishidan oldin murojaat qilinadi.

4. Dastlabki qaror ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda qabul qilinadi va manfaatdor shaxsga taqdim etiladi.

Manfaatdor shaxs o'z xohishiga ko'ra bojxona organlaridan istalgan bittasiga murojaat qilishga haqli.

5. Dastlabki qaror bojxona organlari uchun majburiy hisoblanadi.

2-bob. Dastlabki qarorni olish uchun murojaat qilish

6. Manfaatdor shaxs dastlabki qarorni olish uchun ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi ariza bilan bojxona organiga yozma yoki Bojxona qo'mitasining rasmiy veb-sayti (bundan buyon matnda veb-sayt deb yuritiladi) orqali elektron tarzda murojaat qiladi.

7. Arizaga quyidagi ma'lumotlar va hujjatlar ilova qilinadi:

a) majburiy tartibda:

manfaatdor shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi (nomi) hamda manzili yoki yuridik shaxsning nomi va manzili, telefon raqami;

tovarlarga bojxona imtiyozini qo'llashni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

tovarlarning miqdori (qo'shimcha o'lchov birligidagi miqdori), asosiy texnik-tijorat tavsiflari (markasi, modeli, artikuli, modifikatsiyasi), ishlab chiqaruvchisi, ishlab chiqarilgan mamlakati, ishlab chiqarilgan yili to'g'risidagi ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga (bundan buyon matnda TIF TN deb yuritiladi) muvofiq tovarlarning kodi;

tovardan foydalanish maqsadlari (masalan, to'qimachilik sanoatida foydalanishi uchun);

b) mavjud bo'lganda:

tovar bo'yicha tomonlar o'rtasida tuzilgan tashqi savdo shartnomalari;

tovarlarning kelib chiqish mamlakatini tasdiqlovchi sertifikat;

tovarlarni tasniflash bo'yicha olingan dastlabki qaror;

bojxona imtiyozlarini berish uchun asos bo'ladigan boshqa vakolatli organlarning hujjatlari (litsenziya, guvohnoma va boshqalar);

tovarlarning fotosuratlari, rasmlari, chizmalari va pasportlari, shuningdek dastlabki qarorni qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar va hujjatlar.

Manfaatdor shaxslardan ushbu bandning "a" kichik bandida nazarda tutilmagan hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

8. Arizaga chet tilidagi hujjatlar ilova qilinganda, manfaatdor shaxs tomonidan ushbu hujjatlar belgilangan tartibda davlat tiliga tarjima qilingan holda taqdim etiladi.

9. Ariza hamda unga ilova qilinadigan hujjatlardagi ma'lumotlar to'g'ri va to'liq bo'lishi lozim. Bunda, ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun manfaatdor shaxs javobgar hisoblanadi.

10. Manfaatdor shaxs bojxona organiga yozma shaklda murojaat qilganda, bojxona organi xodimi tomonidan manfaatdor shaxsga ariza qabul qilinganligini tasdiqlovchi ushbu xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi hamda ariza qabul qilingan sana ko'rsatilgan tegishli hujjat yoki arizaning nusxasiga ushbu ma'lumotlarni qayd etgan holda imzo qo'yib beriladi.

11. Manfaatdor shaxs veb-sayt orqali murojaat qilganda, arizada tovarlar haqidagi tegishli ma'lumotlarni ko'rsatgan holda tegishli hujjatlarning elektron nusxalarini veb-saytda biriktiradi va o'zining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlaydi.

12. Dastlabki qarorni qabul qilish uchun taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi, bundan tovarning kelib chiqish sertifikatining asl nusxasi mustasno.

3-bob. Arizani ko'rib chiqish va ko'rib chiqishni rad etish

13. Veb-sayt orqali murojaat qilinganda, ariza Bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga (bundan buyon matnda YAAT deb yuritiladi) avtomatik ravishda kelib tushadi.

Yozma shaklda topshirilgan arizalar kelib tushgan kundan kechiktirmay bojxona organining mas'ul xodimi tomonidan YAATga kiritiladi.

Arizalar YAATga kelib tushgan kunning o'zida elektron tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi.

14. Ariza ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng shu kunning o'zida manfaatdor shaxsning arizasida ko'rsatilgan telefon raqamiga ariza qabul qilinganligi va uning ro'yxat raqami ko'rsatilgan SMS xabar yuboriladi.

Veb-saytda arizaning ro'yxat raqami orqali uning holatini onlayn tarzda ko'rish mumkin.

15. Ariza bojxona organiga kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Dastlabki qarorni qabul qilishda bojxona imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarning tushuntirishlari yoki rasmiy sharhini olish zaruriyati mavjud bo'lganda, arizani ko'rib chiqish muddati qo'shimcha bir oyga uzaytirilishi mumkin.

16. Bojxona organining mas'ul xodimi ariza kelib tushgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida uning mazkur Nizomning 2-bobida nazarda tutilgan talablarga muvofiqligini o'rganadi.

17. Quyidagi hollarda arizani ko'rib chiqish rad etiladi:

arizaga ushbu Nizomning 7-bandida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa;

arizada nazarda tutilgan ma'lumotlar noto'g'ri, tovarga nisbatan bojxona imtiyozini qo'llashni o'rganish imkonini bermaydigan va hujjatlar bilan tasdiqlanmagan axborotga asoslangan bo'lsa;

manfaatdor shaxs tomonidan taqdim qilingan ariza va unga ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa.

Arizani ko'rib chiqish ushbu badda nazarda tutilmagan asoslarga ko'ra rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

18. Mazkur Nizomning 17-bandiga muvofiq arizani ko'rib chiqish rad etilgan taqdirda, bu haqda shu kunning o'zida manfaatdor shaxsga yozma yoki elektron tarzda xabarnoma yuboriladi. Xabarnomada arizani ko'rib chiqishning rad etilishi sabablari ko'rsatiladi.

19. Manfaatdor shaxs arizani ko'rib chiqishning rad etilishiga asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan holda, dastlabki qarorni olish uchun qaytadan murojaat qilishi mumkin.

20. Arizani ko'rib chiqish rad etilgan taqdirda, takroran kiritilgan ariza ushbu Nizomga muvofiq umumiy asoslarda va belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

21. Dastlabki qarorni olish bo'yicha arizaning ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

4-bob. Dastlabki qarorni qabul qilish

22. Dastlabki qaror YAATda bojxona organining rahbari (o‘rinbosari) tomonidan elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash yo‘li bilan qabul qilinadi. Tasdiqlangan dastlabki qarorga YAAT orqali avtomatik ravishda matritsali shtrix kod (QR-kod) qo‘yiladi.

Bunda, arizada ko‘rsatilgan tovarlarning turlari va hajmidan qat’i nazar, bitta ariza bo‘yicha bitta dastlabki qaror qabul qilinadi.

23. Dastlabki qaror qabul qilinganidan so‘ng manfaatdor shaxsning telefon raqamiga dastlabki qaror qabul qilinganligi va bojxona yig‘imini to‘lash lozimligi to‘g‘risida tegishli to‘lov bo‘yicha invoys shakllantirilgan havolali SMS xabar yuboriladi.

24. Manfaatdor shaxs bojxona yig‘imini to‘laganidan so‘ng, o‘zi murojaat qilgan veb-sayt orqali arizaning ro‘yxat raqamini kiritgan holda dastlabki qarorning elektron shaklini yuklab oladi, shuningdek yozma shaklda murojaat qilingan bo‘lsa, dastlabki qarorning elektron yoki qog‘oz shaklini ariza topshirilgan bojxona organidan oladi.

25. Dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun bojxona yig‘imi manfaatdor shaxsning ko‘rsatmasiga asosan uning bojxona organi shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga dastlabki tarzda o‘tkazilgan pul mablag‘laridan ham yechib olinishi mumkin.

26. Manfaatdor shaxs qabul qilingan dastlabki qaror uchun bojxona yig‘imini o‘ttiz kun ichida to‘lamagan taqdirda, bojxona yig‘imi bojxona organi tomonidan sud tartibida undirib olinadi.

5-bob. Dastlabki qarorni qabul qilishni rad etish asoslari

27. Quyidagi hollarda bojxona organi tomonidan dastlabki qarorni qabul qilish rad etiladi:

qonunchilik hujjatlarida arizada ko‘rsatilgan tovarga nisbatan bojxona imtiyozlarini qo‘llash nazarda tutilmaganda;

ariza yuzasidan muqaddam aynan bir manfaatdor shaxsga aynan bir xil tovarlar bo‘yicha dastlabki qaror berilgan va ushbu dastlabki qarorning amal qilish muddati tugamagan bo‘lsa.

Dastlabki qarorni qabul qilish ushbu bandeda nazarda tutilmagan asoslarga ko‘ra rad etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

28. Bojxona organi tomonidan dastlabki qarorni qabul qilish rad etilgan taqdirda, bu haqda shu kunning o‘zida manfaatdor shaxsga yozma yoki elektron shaklda xabarnoma yuboriladi. Xabarnomada dastlabki qarorni qabul qilishning rad etilishi sabablari ko‘rsatiladi.

29. Manfaatdor shaxs dastlabki qarorni qabul qilishning rad etilishi uchun asos bo‘lgan sabablarni bartaraf etgan holda bojxona organiga qaytadan murojaat qilishi mumkin.

Takroran kiritilgan murojaat ushbu Nizomga muvofiq umumiy asoslarda va belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

6-bob. Dastlabki qarorga o'zgartirish kiritish va uni bekor qilish

30. Bojxona organi tomonidan qabul qilingan dastlabki qarorga o'z tashabbusi yoki manfaatdor shaxsning murojaatiga asosan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Dastlabki qarorga o'zgartirish kiritilishi uning amal qilish muddatining o'zgarishiga olib kelmaydi.

31. Manfaatdor shaxs dastlabki qarorga o'zgartirish kiritish uchun mazkur Nizomning 2-bobida belgilangan tartibda va shaklda murojaat qiladi hamda o'zgartirish kiritish zaruriyati va asoslovchi hujjatlarni taqdim etadi.

32. Dastlabki qarorga o'zgartirishlar bojxona organi tomonidan ushbu dastlabki qarorni qabul qilishda yo'l qo'yilgan hamda tovarga nisbatan bojxona imtiyozini qo'llash to'g'risidagi ma'lumotlarga ta'sir qilmaydigan xatoliklar aniqlangan taqdirda kiritiladi.

33. Dastlabki qarorga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, bojxona yig'imi undirilmaydi.

34. Dastlabki qarorga o'zgartirish kiritilganidan so'ng, veb-sayt va YAATga joylashtirilgan dastlabki qaror bojxona organi tomonidan uning o'zgartirilgan holatdagi shakli bilan almashtirib qo'yiladi.

35. Dastlabki qarorga kiritilgan o'zgartirish u kiritilgan kundan boshlab amal qiladi.

36. Manfaatdor shaxs tomonidan dastlabki qarorni olish uchun ataylab noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar taqdim etilganligi aniqlansa, dastlabki qaror Bojxona qo'mitasi yoki sud tomonidan bekor qilinadi.

37. Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risidagi qaror Bojxona qo'mitasi tomonidan mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda qabul qilinadi.

Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinganda, dastlabki qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bekor qilingan hisoblanadi.

38. Agar bojxona hududi orqali olib o'tilgan tovarlar bekor qilingan dastlabki qaror asosida bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan bo'lsa, ular bo'yicha bojxona to'lovlari qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladi.

39. Dastlabki qaror manfaatdor shaxsning aybi bilan bekor qilingan taqdirda, uning uchun to'langan bojxona yig'imi qaytarilmaydi.

40. Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risidagi qaror YAATga elektron shaklda joylashtiriladi.

41. Dastlabki qarorga o'zgartirish kiritish yoki uni bekor qilish to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay manfaatdor shaxsga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

7-bob. Dastlabki qarorning amal qilish doirasi va muddati

42. Dastlabki qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch yil davomida yoxud qonunchilik hujjatlarida berilgan bojxona imtiyozlarining amal qilish muddati doirasida amal qiladi. Bunda, dastlabki qarorni qabul qilish jarayonida foydalanilgan qoidalar, faktlar va shartlar o'zgartirilmagan bo'lishi shart.

43. Dastlabki qaror asosida O'zbekiston Respublikasining istalgan bojxona postida bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish mumkin.

44. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish jarayonida bojxona organining xodimlari tomonidan YAATdan dastlabki qarorning elektron shakli manfaatdor shaxs taqdim etgan ma'lumotlar (familiya, ism, otasining ismi yoki arizaning ro'yxat raqami) asosida istalgan vaqtda yuklab olinadi.


8-bob. Yakuniy qoidalar

45. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

46. Manfaatdor shaxslar bojxona organlarining qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda, bevosita Bojxona qo'mitasining apellyatsiya kengashiga yoki sud organlariga murojaat qilishlari mumkin.

Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash
bo'yicha bojxona organlarining dastlabki
qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

Tovarga nisbatan bojxona imtiyozlarini qo'llash to'g'risidagi
DASTLABKI QAROR



1. Dastlabki qarorni ro'yxatga olish raqami va sanasi:
2. Dastlabki qarorni qabul qilgan bojxona organining nomi:
3. Manfaatdor shaxs:
4. Dastlabki qarorning amal qilish muddati:
5. Tovarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasiga muvofiq kodi:
6. Tovarlar nomi va tavsifi: (tovarning asosiy texnik-tijorat tavsiflari (markasi, modeli, artikuli, modifikatsiyasi), ishlab chiqaruvchisi, ishlab chiqarilgan mamlakati va boshqa xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumot, netto vazni, brutto vazni, shartnoma valyutasi, yuk jo'natuvchi mamlakat, savdo qiluvchi mamlakat, ishlab chiqaruvchi va h.k.)
7. Tovarga nisbatan imtiyozini qo'llash va uni asoslash:
8. Imtiyoz qo'llaniladigan bojxona to'lovlari turlari:
9. Dastlabki qarorni qabul qilish asoslari:
10. Manfaatdor shaxs tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar va hujjatlar ro'yxati:
11. Qo'shimcha ma'lumotlar:
12. Bojxona organining mansabdor shaxsi
Lavozim (elektron raqamli imzo) Familiyasi, ismi va otasining ismi

Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash
bo'yicha bojxona organlarining dastlabki
qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

Tovarga nisbatan bojxona imtiyozlarini qo'llash to'g'risidagi
dastlabki qarorni qabul qilish bo'yicha
ARIZA

(sana)


(raqam)

I. Tovarlarning egasi to'g'risidagi ma'lumotlar		
1.1.	Manfaatdor shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi (nomi) hamda manzili/yuridik shaxsning nomi	
1.2.	Pochta manzili (Pochta indeksi)	
1.3.	Tashkiliy-huquqiy shakli	
1.4.	STIR yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami	
1.5.	Davlat ro'yxatidan o'tgan raqami va sanasi	
1.6.	Telefon raqami	
II. Dastlabki qarorni qabul qilish uchun ma'lumotlar		
2.1.	Tovarlarga bojxona imtiyozini qo'llashni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar	
2.2.	Tovarlarning savdo, tijorat nomi va to'liq tavsifi, savdo belgisi, asosiy texnik-tijorat tavsiflari (markasi, modeli, artikuli, modifikatsiyasi), navi, standartlari, bajaradigan funksiyalari, texnik va tijorat xususiyatlari	
2.3.	Tovarlar haqidagi ma'lumot (TIF TNga muvofiq tovarlarning kodi, savdo qiluvchi mamlakat, yuk jo'natuvchi va kelib chiqish mamlakati, yuk jo'natuvchi, sotuvchi, tovar ishlab chiqaruvchi, tovarning brutto/netto og'irliklari hamda asosiy va (yoki) qo'shimcha o'lchov birliklaridagi miqdori	
2.4.	Tovardan foydalanish maqsadlari	
3.4.	Tashqi savdo shartnomasi (mavjud bo'lsa), tovarlarni yetkazib berish shartlari	
3.5.	Tovarning kelib chiqish sertifikatini (agar mavjud bo'lsa)	
3.6.	Tovarlarni tasniflash bo'yicha olingan dastlabki qaror (agar mavjud bo'lsa)	
3.7.	Bojxona imtiyozlarini berish uchun asos bo'ladigan boshqa vakolatli organlarning hujjatlari (litsenziya, guvohnoma va boshqalar) (agar mavjud bo'lsa)	
3.8.	Dastlabki qarorni qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar	
3.9.	Ilova qilinadigan hujjatlar*	

Izoh: * Taqdim etiladigan ma'lumotlar va hujjatlar ilova qilinadi.

Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash
bo'yicha bojxona organlarining dastlabki
qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

**Tovarga nisbatan bojxona imtiyozlarini qo'llash to'g'risidagi
dastlabki qarorni bekor qilish haqidagi
QAROR**



1. Manfaaddor shaxs haqidagi ma'lumotlar	
2. Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan sana	
3. Bekor qilingan dastlabki qarorning ro'yxatga olish raqami va sanasi	
4. Bekor qilingan dastlabki qarorda ko'rsatilgan tovar nomi	
5. Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilishning asoslari va sabablari	
6. Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risidagi qaror kuchga kiradigan sana	
7. Dastlabki qarorni bekor qilish to'g'risidagi qaror qabul qilgan Bojxona qo'mitasining mansabdor shaxsi	

Lavozim

(elektron raqamli imzo)

Familiyasi, ismi va otasining ismi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

**339 Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi
ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi
nizomni tasdiqlash haqida***

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3635*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2025-yil 28-fevraldagi 130-son "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish, kasbiy sertifikatlash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

K. SHARIPOV

Toshkent sh.,
2025-yil 29-may,
202-son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2025-yil 20-may

***Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri***

B. ZAXIDOV

2025-yil 17-may

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 1-iyulda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2025-yil 29-maydagi 202-son buyrug'iga
ILOVA

Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM

Mazkur Nizom kasbiy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasini berish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

malaka toifasi — attestatsiya natijalariga ko'ra berilgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining nazariy bilimi, amaliy ko'nikmalari, kasbiy malakasini tasdiqlovchi hamda ularni rag'batlantirish uchun asos bo'ladigan toifa;

malaka toifasi berilganligi to'g'risidagi sertifikat (bundan buyon matnda malaka sertifikati deb yuritiladi) — ishlab chiqarish ta'limi ustalariga malaka toifasi berilganligini tasdiqlovchi hujjat.

2. Nodavlat kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'z xohishiga ko'ra mazkur Nizom talablariga muvofiq navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tishi mumkin.

Nodavlat kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, attestatsiyadan o'ta olmagan taqdirda ularning malaka toifasi tushirilmaydi.

3. Attestatsiyani tashkil etish jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

2-bob. Attestatsiyaning maqsadi va vazifalari

4. Attestatsiyani o'tkazishdan maqsad ishlab chiqarish ta'limi ustalarini kasbiy standartlar hamda ularning har bir lavozim va kasb bo'yicha malaka toifasiga qo'yiladigan talablar asosida baholash va ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirishdan iborat.

5. Attestatsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarish ta'limi ustalarini mutaxassisligi yoki ixtisosligi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish;

ishlab chiqarish ta'limi ustalarining o'z sohasini bilishi, faoliyati samaradorligi, pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligini o'rganish va xolisona baho berish hamda ularni rag'batlantirish;

ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy salohiyatini oshirish;

kasbiy ta'lim tashkilotlarini yuqori bilim saviyasiga ega bo'lgan, tajribali ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan to'ldirish.

3-bob. Attestatsiyani tashkil etish va attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish

6. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari har besh yilda bir marta malaka toifasini berish bo'yicha navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tkaziladi.

Ilgari attestatsiyadan o'tmagan va ishga yangi qabul qilingan yoki ta'lim tashkilotlarini bitirib, birinchi bor ishga kirgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari mutaxassisligi bo'yicha uch yil pedagogik ish stajiga ega bo'lgandan so'ng majburiy attestatsiyaga jalb qilinadi. Majburiy attestatsiyaga jalb qilingunga qadar ularga malaka toifasiga ega bo'lmagan ishlab chiqarish ta'limi ustasi toifasi beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tishi mumkin.

Bunda, navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, attestatsiyadan o'ta olmagan ta'lim ustalarining malaka toifasi tushirilmaydi hamda ular lavozimiga muvofiq emas deb hisoblanmaydi.

Navbatdagi majburiy attestatsiya natijalariga ko'ra amaldagi malaka toifasi oshirilgan, saqlangan yoki tushirilgan, shuningdek, navbatdan tashqari attestatsiya natijalariga ko'ra amaldagi malaka toifasi oshirilgan yoki saqlangan ishlab chiqarish ta'limi ustalari navbatdagi majburiy attestatsiyaga besh yildan so'ng jalb etiladi.

7. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari majburiy attestatsiyaga o'z muddatida jalb etilishi uchun ta'lim ustalari faoliyat ko'rsatayotgan kasbiy ta'lim tashkiloti rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi.

8. Quyidagilar navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydi:

fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) darajasiga hamda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari;

pedagogik faoliyat bo'yicha uch yildan kam bo'lgan ish stajiga ega ishlab chiqarish ta'limi ustalari;

homilador ayollar, ular homilador bo'lgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin bir yil davomida;

homiladorlik va tug'ish hamda bolani parvarish qilish ta'tillarida bo'lgan ayollar, ular ta'tilda bo'lgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin bir yil davomida;

pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan uch yoshgacha bolalari bor ayollar;

uzoq (uch oydan ortiq vaqt mobaynida) davolanishni o'tayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ular davolanayotgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin olti oy davomida;

mazkur Nizomning 9-bandida ko'rsatilgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka toifasi to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tkazilmasdan bir pog'ona oshirilgan vaqtdan boshlab keyingi besh yil davomida;

respublika va chet el davlatlariga o'qishga, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yuborilgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ular chet elda

bo'lgan davrda. Ushbu ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka toifalari navbatdagi tashkil etiladigan malaka sinovlarigacha saqlanadi;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlar asosida raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun eng kam miqdordagi ish o'rinlariga zaxiraga olib ishga joylashtirilgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari, bu ish joylariga qabul qilingan kundan boshlab uch yil davomida.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq mazkur badda ko'rsatilmagan boshqa ishlab chiqarish ta'limi ustalari ham navbatdagi majburiy attestatsiyadan ozod qilinishi mumkin.

9. Quyidagi ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka toifasi to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tkazilmasdan bir pog'onaga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ishlab chiqarish ta'limi ustalari;

“Ustoz” milliy mukofoti g'oliblari;

Worldskills musobaqalari sovrindorlarini tayyorlagan kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalari;

respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan ishlab chiqarish ta'limi ustalari.

10. Ishlab chiqarish ta'limi ustalariga birinchi va ikkinchi malaka toifalari besh yil muddatga beriladi.

11. Attestatsiyada qatnashib, malaka toifasiga ega bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi ustalariga amaldagi malaka toifasi bo'yicha ish haqi to'lanadi.

Bunda, ish haqini to'lash, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka sertifikatini amal qilish muddati davrida amalga oshiriladi.

12. Kasbiy ta'lim tashkilotlarining rahbarlari:

navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tish muddati tugashidan olti oy oldin ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi;

ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtirishi hamda attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish boshlangunga qadar ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholashni tashkil etishi lozim.

13. Attestatsiyaga doir tashkiliy masalalar Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari (bundan buyon matnda hududiy boshqarmalar deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

14. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari asosiy ish joyi bo'yicha attestatsiyaga jalb etiladi. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan va asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmaydigan ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan kasbiy ta'lim tashkilotlaridan o'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilishi mumkin.

15. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka toifalari boshqa ta'lim tashkilotlariga ishga o'tganda saqlab qolinadi.

16. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari oliy yoki o'rta maxsus (kasbiy ta'lim)

ma'lumot olganligi, norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish ("Recognition of Prior Learning") diplom yoki sertifikatlar shuningdek qayta tayyorlash kursidan o'tganligi haqidagi diplomida ko'rsatilgan mutaxassisligi yoki ixtisosligi bo'yicha attestatsiyadan o'tadi.

17. Attestatsiyadan o'tish uchun ishlab chiqarish ta'limi ustalari har yili 1-avgustdan 1-oktabrga qadar bevosita pedagog.edu.uz elektron axborot tizimidan (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) ro'yxatdan o'tgan holda murojaat qiladilar.

Attestatsiyadan o'tish yoki to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tmasdan malaka toifasini bir pog'onaga oshirish uchun murojaat qilgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari mustaqil ravishda axborot tizimi orqali ushbu Nizomning 1 va 2-ilovalariga* muvofiq so'rovnomalarni elektron tarzda to'ldiradi.

So'rovnomalarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ishlab chiqarish ta'limi ustasining ta'lim to'g'risidagi hujjati (xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni O'zbekiston Respublikasida tan olish haqidagi guvohnoma);

qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplom nusxasi (agar mavjud bo'lsa);

ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnoma.

Zaruratga ko'ra, ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida, ishlab chiqarish ta'limi ustasidan quyidagi qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin:

ishlab chiqarish ta'limi ustasining familiyasi yoki ismi o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumot;

ishlab chiqarish ta'limi ustasining malaka toifasi bir pog'onaga oshirish uchun asos bo'ladigan hujjatlar.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalaridan ushbu badda ko'rsatilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga ishlab chiqarish ta'limi ustasi mas'ul hisoblanadi.

18. Hujjatlar to'liq taqdim etilganda vazirlik tomonidan hujjatlar qabul qilinganligi to'g'risida axborot tizimi orqali ishlab chiqarish ta'limi ustalariga xabarnoma yuboriladi. Shuningdek, ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan axborot tizimiga kiritilgan telefon raqamga avtomatik tarzda SMS-xabarnoma yuboriladi.

Ushbu xabarnomada ishlab chiqarish ta'limi ustasining attestatsiyaga jalb qilish sanalari, jalb qilinadigan yo'nalishi, shaxsiy ma'lumotlari aks ettiriladi hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat bilan elektron yoki bosma ravishda taqdim etilganda, attestatsiya jarayoniga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalaniladi.

19. Noto'g'ri ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilganligi aniqlangan har qanday bosqichda ishlab chiqarish ta'limi ustasining hujjatlarini qabul qilish va attestatsiyadan o'tkazish jarayoni to'xtatiladi, topshirilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan topshirilgan hujjatning qalbaki ekanligini aniqlash Vazirlikda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida amalga

* 1-2-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

oshiriladi. Mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan topshirilgan hujjatlarning haqqoniyligini aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, tegishli vakolatli tashkilotlarga so'rovnoma yuboriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan topshirilgan hujjatlar qalbaki ekanligi aniqlangan taqdirda, mazkur hujjatlar vazirlik tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq chora ko'rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etiladi.

20. Vazirlik tomonidan quyidagi holatlarda hujjatlarni qabul qilishda rad etilishi mumkin:

ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilgani ma'lum bo'lib qolganligi;

so'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liq taqdim etilmaganligi.

Mazkur bandda ko'rsatilgan asoslardan boshqa holatlar bo'yicha hujjatlarni qabul qilishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

21. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi attestatsiyadan o'tkazishning har qanday bosqichida bosh tortishga haqli (navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tkazish holatlari bundan mustasno).

22. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiya o'tkazish reja grafigi Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi hamda Vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

4-bob. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish

23. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish ikki bosqichda amalga oshiriladi hamda ikkita bosqich bo'yicha umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.

Bunda:

birinchi bosqichda — ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi baholanadi (20 ballik);

ikkinchi bosqichda — ishlab chiqarish ta'limi ustalarining nazariy va amaliy ko'nikmalari baholanadi (80 ballik).

24. Birinchi bosqichda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi mazkur Nizomning 3-ilovasiga* muvofiq baholanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi har bir attestatsiya uchun alohida baholanadi. Bunda oldingi attestatsiya jarayonida baholash obyekti bo'lgan ko'rsatkichlar keyingi attestatsiyaning pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikni baholash bosqichida hisobga olinmaydi.

25. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari mazkur Nizomning 4-ilovasiga* muvofiq shakldagi ma'lumotnomaga kiritilib, kasbiy ta'lim tashkiloti rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan holda, Vazirlikka topshirish uchun ishlab chiqarish ta'limi ustalariga taqdim etiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikni

* 3-4-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnomada necha ball ko'rsatilganidan qat'iy nazar, attestatsiyaning keyingi bosqichida ishtirok etadi.

Pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikni baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnoma attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish boshlangan sanaga qadar ko'pi bilan to'rt oy muddat ichida berilgan bo'lishi lozim.

26. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy standartlari hamda lavozim va kasb bo'yicha malakasiga qo'yiladigan talablar mazkur Nizomning 5-ilovasiga* muvofiq baholanadi.

27. Attestatsiyaning ikkinchi bosqichi ishlab chiqarish ta'limi ustalarining mutaxassisligi va ixtisosligiga mos ravishda tuzilgan topshiriqlar asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida o'tkaziladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari Vazirlik tomonidan Professional ta'limni rivojlantirish instituti (bundan buyon matnda Institut deb yuritiladi) va hududiy boshqarmalar takliflariga asosan belgilanadi.

Bunda, hududiy boshqarmalar ta'lim tashkilotlarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilishiga mas'ul hisoblanadi.

28. Attestatsiyaning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlagan attestatsiya komissiyalari (bundan buyon matnda attestatsiya komissiyasi deb yuritiladi) tomonidan o'tkaziladi.

Attestatsiya komissiyalari tarkibi Institut tomonidan kamida besh nafar a'zodan, shu jumladan, attestatsiya komissiyasi raisi, rais o'rinbosari va kotibidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Attestatsiyada komissiya raisi ishtirok etmagan taqdirda, raislik vazifasini uning o'rinbosari bajaradi.

Attestatsiyadan o'tayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining sonidan kelib chiqib attestatsiya komissiyasi tarkibiga qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

29. Attestatsiya ikkinchi bosqichining nazariy va amaliy mashg'ulot topshiriqlari Institut tomonidan tuziladi.

30. Attestatsiyani topshirish jarayonida ishlab chiqarish ta'limi ustalariga quyidagilar taqiqlanadi:

qonunchilik hujjatlari, yo'riqnoma materiallar, maxsus adabiyotlar hamda shpargalkalardan foydalanish;

uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish;

boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qilish;

boshqalar bilan suhbatlashish;

ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'rniga boshqa shaxs kirishi;

attestatsiya o'tkazish joyidan sababsiz tashqariga chiqish.

31. Attestatsiya komissiyasi:

ishlab chiqarish ta'limi ustalarini nazariy va amaliy ko'nikmalarini mazkur Nizomning 5-ilovasidagi baholash mezonlariga muvofiq baholaydi;

* 5-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

nazariy va amaliy mashg'ulot natijalarini baholashda adolatli, shaffof hamda xolis bo'ladi;

mazkur Nizomni 30-bandi talablarini buzgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiya jarayonlaridan chetlashtiradi;

imtihon vaqtida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini vaqt me'yorlariga amal qilishini ta'minlaydi.

32. Attestatsiya komissiyasi xulosasi komissiya a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda, haqiqiy hisoblanadi.

33. Nazariy va amaliy mashg'ulotda ishlab chiqarish ta'limi ustalariga 1 ta topshiriq beriladi.

Topshiriqqa tayyorgarlik ko'rish, uning nazariy qismiga javob berish hamda amaliy qismini bajarish uchun jami 30 daqiqa ajratiladi.

34. Attestatsiya komissiyasi ishlab chiqarish ta'limi ustalarini nazariy va amaliy mashg'ulotni bajarishidan oldin topshiriq mazmuni, texnik shartlar, baholash mezonlari, ajratilgan vaqt me'yori hamda texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiradi. Shuningdek, attestatsiya jarayoni videokuzatuv orqali qayd etib boriladi.

35. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari attestatsiyaning ikkinchi bosqichi natijasi bilan tanishtiriladi hamda tanishganligini tasdiqlash uchun qaydnomaga imzo qo'yadi.

36. Vazirlik va Institutning xodimlari, attestatsiya komissiyasi a'zolari hamda attestatsiya topshiruvchi ishlab chiqarish ta'limi ustalaridan boshqa shaxslar attestatsiyaning ikkinchi bosqichiga kiritilmaydi.

37. Ikkita bosqich natijalariga ko'ra:

1) birinchi malaka toifali ta'lim ustalari:

70 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, birinchi malaka toifasi saqlangan;

70 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, ikkinchi malaka toifasiga tushirilgan (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari bundan mustasno);

2) ikkinchi malaka ta'lim ustalari:

70 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, birinchi malaka toifasi berilgan;

69 balldan 60 ballgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, ikkinchi malaka toifasi saqlangan;

60 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasi lavozimiga tushirilgan (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan ishlab chiqarish ta'limi ustasi bundan mustasno);

3) malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasi:

60 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, ikkinchi malaka toifasi berilgan;

55 balldan 59 ballgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tgan, malaka toifasiz ta'lim ustasi lavozimi saqlangan;

55 balldan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — attestatsiyadan o'tmagan, malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasi lavozimiga muvofiq emas deb

(navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan ishlab chiqarish ta'limi ustasi bundan mustasno) hisoblanadi.

38. Malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasi navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'ta olmagan taqdirda, ish beruvchi xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish huquqiga ega.

Ish beruvchi mehnat shartnomasini bekor qilmagan taqdirda, navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'ta olmagan malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasini navbatdan tashqari attestatsiyaga ko'pi bilan ikki marta jalb etadi. Bunda ikki martadan birortasida ham navbatdan tashqari attestatsiyadan o'ta olmagan ishlab chiqarish ta'limi ustasi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli bekor qilinadi.

39. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi attestatsiyada uzrli sababga (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligi, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etganligi, vaqtincha xorijiy mamlakatda safarda bo'lganligi, yaqin qarindoshining vafoti, vakolatli davlat organi yoki ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ma'lumotnomasida ko'rsatilgan boshqa asoslarga) ko'ra kelmagan bo'lsa, ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chiriladi.

40. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi uzrsiz sababga ko'ra attestatsiyada ishtirok etmagan bo'lsa, u attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi hamda uning tegishli malaka toifasi bir pog'ona tushiriladi.

41. Institut attestatsiya yakunlanganidan so'ng o'n ish kunida Vazirlikka attestatsiya natijalari bo'yicha yakuniy hisobot taqdim etadi.

42. Attestatsiyadan o'tganlik muddati tugagan va navbatdagi majburiy attestatsiyadan ozod etilmagan ishlab chiqarish ta'limi ustalariga malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasi lavozimi bo'yicha haq to'lanadi.

43. Attestatsiyadan o'tganlik muddati tugab, malaka toifasiz ishlab chiqarish ta'limi ustasi lavozimi bo'yicha haq to'lanayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalari navbatdagi majburiy attestatsiyaga oxirgi olgan malaka toifasi bo'yicha jalb qilinadi.

44. Attestatsiya jarayonlari yakunlanganidan so'ng bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan attestatsiya natijalariga ko'ra birinchi va ikkinchi malaka toifalari berilgan hamda to'g'ridan-to'g'ri attestatsiyadan o'tkazilmasdan malaka toifalari bir pog'onaga oshiriladigan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ro'yxati tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan ro'yxatga asosan ishlab chiqarish ta'limi ustalariga mazkur Nizomga 6 va 7-ilovalariga* muvofiq shakldagi QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikatlar beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari axborot tizimida joylashgan shaxsiy kabinetiga kirish orqali elektron shakldagi sertifikatni yuklab olishi mumkin.

5-bob. Attestatsiya natijalari yuzasidan murojaat qilish

45. Attestatsiya natijalaridan norozi bo'lgan ta'lim ustalari natijalar e'lon qilingan kundan boshlab o'n kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma

* 6-7-ilovalar «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

ravishda ariza (shikoyat) berishlari mumkin. Ariza (shikoyat) ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun muddatda ko'rib chiqiladi. Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish yozma ravishda yoki Vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali elektron tarzda amalga oshiriladi.

46. Apellyatsiya komissiyasi attestatsiya boshlangandan keyin o'n kun ichida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'iga ko'ra yetti kishidan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari (komissiya raisi), sohaga mas'ul tarkibiy bo'linmasi rahbari (komissiya raisi o'rinbosari), Vazirlik xodimlari (bir nafari — komissiya kotibi), kasaba uyushmasi vakili hamda xodimlaridan iborat bo'ladi.

Apellyatsiya komissiyasining tarkibi va ish tartibi apellyatsiya komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi buyruqda belgilanadi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga Attestatsiya komissiyasi tarkibidan a'zo kiritilmaydi. Apellyatsiya komissiyasi muammoli holatlarga aniqlik kiritish uchun jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

47. Apellyatsiya komissiyasi yig'ilishida komissiya a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etsa, uning qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo'ladi. Murojaat etuvchi ishlab chiqarish ta'limi ustalari apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaati ko'rib chiqilishi jarayonida bevosita yoki masofadan turib onlayn tarzda ishtirok etishi mumkin.

48. Apellyatsiya komissiyasi ishlab chiqarish ta'limi ustasining attestatsiya jarayonlariga oid murojaatini ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

ishlab chiqarish ta'limi ustasining to'g'ri baholanganligi, nazariy va amaliy mashg'ulot topshiriqlarida xato va kamchiliklar, shuningdek, sinovlarni o'tkazish jarayonida tashkiliy-texnik jihatdan kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, attestatsiya natijalarini o'zgartirishsiz qoldirish;

ishlab chiqarish ta'limi ustasining pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi noto'g'ri baholanganligi, nazariy va amaliy mashg'ulot topshiriqlarida xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, attestatsiya natijalarini o'zgartirish;

attestatsiya o'tkazish jarayonida tashkiliy-texnik jihatdan kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, nazariy va amaliy mashg'ulot topshiriqlarining qaytadan topshirilishini tashkil etish.

6-bob. Yakuniy qoidalar

49. Attestatsiya komissiyasi yoki apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

50. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
QARORI

340 “Jasorat maktablari”ga o'quvchilarni qabul qilish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3636*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–393-son “O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **qaror qiladi:**

1. “Jasorat maktablari”ga o'quvchilarni qabul qilish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Milliy gvardiya bilan kelishilgan.
3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Mudofaa vaziri

Sh. XALMUXAMEDOV

Toshkent sh.,
2025-yil 30-iyun,
28-son

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**

X. UMAROVA

Toshkent sh.,
2025-yil 30-iyun,
7-mh-son

Kelishildi:

Ichki ishlar vaziri

A. TASHPULATOV

2025-yil 30-iyun

Favqulodda vaziyatlar vaziri

B. KUDRATXODJAYEV

2025-yil 28-iyun

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 3-iyulda e'lon qilingan.

*Milliy gvardiya qo'mondoni**R. JURAYEV**2025-yil 30-iyun*

O'zbekiston Respublikasi
Mudofaa vazirligining 2025-yil 30-iyundagi
28-son, Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligining 2025-yil 30-iyundagi
7-mh-son qaroriga
ILOVA

**“Jasorat maktablari”ga o'quvchilarni qabul qilish va o'quv-
tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom “Jasorat maktablari”ga (bundan buyon matnda Jasorat sinflari deb yuritiladi) o'quvchilarni qabul qilish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Jasorat sinflarida ta'lim jarayonlari umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv rejasi va o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi.

2. Jasorat sinflariga o'quvchilar belgilangan yillik qabul kvotasi (bitta sinfga 26 nafar o'quvchidan iborat) doirasida 5-sinfдан boshlab qabul qilinadi.

3. Belgilangan kvotaga asosan kirish imtihonlari natijalari bo'yicha eng yuqori ball to'plagan o'quvchilar o'qishga qabul qilinadi.

4. Jasorat sinflariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi.

2-bob. Jasorat sinflarining maqsadi va asosiy vazifalari

5. Jasorat sinflarining maqsadi o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularda harbiy xizmatni ado etishda zarur bo'ladigan dastlabki harbiy va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish, oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun maqsadli tayyorlashdan iborat.

6. Jasorat sinflarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

harbiy-sport musobaqalari, intellektual viktorinalar va ko'rik-tanlovlarni tashkil etish;

robototexnika, kelajak o'yinlari, tibbiy tayyorgarlik, huquqiy savodxonlik, milliy sport o'yinlari kabi to'garak mashg'ulotlariga o'quvchilarni jalb qilish;

o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik,

sadoqat, fidokorlik singari sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

mamlakatimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash.

3-bob. Jasorat sinflariga o'quvchilarni qabul qilish tartibi

7. Jasorat sinflariga o'quvchilar kirish imtihonlari natijalariga ko'ra qabul qilinadi.

Jasorat sinflariga o'quvchilarni tanlab olish va o'qishga qabul qilish mazkur Nizom talablariga muvofiq qabul komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Jasorat sinflarida o'qish muddati yetti yilni tashkil qiladi.

8. Jasorat sinflari tashkil etilgan maktablarda hujjatlarni qabul qilish, rasmiylashtirish, jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovlar o'tkazish, test sinovini o'tkazish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlash hamda ota-onalarning murojaatlarini ko'rib chiqish maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) va uning tizimidagi tashkilotlar hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning (bundan buyon matnda Hamkor tashkilotlar deb yuritiladi) mas'ul vakillaridan iborat qabul komissiyasi (keyingi o'rinlarda — qabul komissiyasi) shakllantiriladi.

9. Qabul komissiyasining tarkibi Agentlik direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Qabul komissiyasi tarkibi 7 kishidan kam bo'lmagan toq miqdorda komissiya raisi, komissiya raisi o'rinbosari, komissiya kotibi hamda uning a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi.

10. Qabul komissiyasi:

kirish imtihonlari materiallarini Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tayyorlaydi;

har bir Jasorat sinflari bo'yicha tuzilgan ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

hujjatlari qabul qilingan o'quvchilarning ro'yxatini shakllantiradi, ularni kirish imtihonlari shartlariga mos ravishda guruhlariga taqsimlaydi;

kirish imtihonlar uchun apellyatsiya komissiyalariga malakali mutaxassislarni jalb etadi hamda ularning tarkibini tasdiqlaydi;

kirish imtihonlarini tashkil etadi, natijalarini e'lon qiladi.

11. Qabul komissiyasi tomonidan har bir Jasorat sinfi bo'yicha alohida ishchi guruh shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

12. Ishchi guruh:

o'quvchilarning hujjatlari mazkur Nizom talablari asosida taqdim etilganini ko'rib chiqadi;

ko'rib chiqish natijasida o'quvchining hujjatlarini qabul qilish, tahrirlashga yuborish yoki qabul qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

hujjatlari tahrirlashga yuborilgan yoki qabul qilinishi rad etilgan hollarda

tahrirlashga yuborish yoki rad etilish sabablarini aniq ko'rsatgan holda, o'quvchilarning shaxsiy kabinetiga yoki telefon raqamiga SMS shaklida xabar yuboradi;

kirish imtihonlari o'tkaziladigan joylarni talab darajasida tayyorlaydi;

o'quvchilarni, ularning ota-onasi (qonuniy vakili)ni kirish imtihonlari shartlari bilan tanishtiradi, kirish imtihonlari o'tkaziladigan joyi va vaqti to'g'risida shaxsiy kabinet yoki bog'lanish uchun taqdim etilgan telefon raqamiga SMS shaklida xabar yuborish orqali ogohlantiradi;

tasdiqlangan jadval asosida murojaat qiluvchilarga maslahat berib boradi;

qabul qilingan hujjatlarning kunlik monitoringini yuritadi va qabul komissiyasiga kunlik axborot kiritadi;

o'quvchilar va ularning ota-onasi (qonuniy vakili) tomonidan berilayotgan savollarga javob tayyorlash va ularni veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ommaga taqdim etish choralarini ko'radi.

13. Hujjatlarni qabul qilish boshlanishidan kamida 10 kalendar kun oldin qabul komissiyasi tomonidan Vazirlik va Agentlikning rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida qabul qilish tartibi, hujjatlarni topshirish muddatlari va qabul kvotalari to'g'risida e'lon qilinadi.

14. Jasorat sinflariga kirish uchun o'quvchilarning hujjatlari 20 kundan kam bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

15. Kirish imtihonlari barcha Jasorat sinflarida bir vaqtda o'tkaziladi. O'quvchi hujjatlarini faqat bitta Jasorat sinflariga topshirishi mumkin.

16. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining tegishli sinfida o'qishni to'liq tamomlagan o'quvchilar Jasorat sinflarining shunday sinfida takroran o'qishni talab qilish huquqiga ega emaslar.

17. Jasorat sinflariga o'quvchilarning quyidagi hujjatlari onlayn shaklda Agentlikning rasmiy veb-sayti orqali qabul qilinadi:

o'quvchilarning tegishli o'quv yili natijasiga ko'ra baholar tabelining maktab direktori tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

086-U shakl bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma;

o'quvchilarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va ularning ota-onasi (qonuniy vakili) fuqarolik pasporti (ID-karta) ma'lumotlari, bog'lanish uchun mobil telefon raqamlari;

Hujjat topshirish jarayonida o'quvchilarning ota-onasi (qonuniy vakili) kirish imtihonlari shartlari va talablari bilan tanishganligi to'g'risidagi onlayn ofertani tasdiqlaydi.

18. Hujjatlarni belgilangan muddatlarda, to'g'ri va sifatli taqdim etish bo'yicha mas'uliyat o'quvchilarning ota-onasi (qonuniy vakili) zimmasiga yuklanadi.

19. O'quvchilarning hujjatlari ishchi guruh tomonidan (24 soat ichida) ko'rib chiqilgandan so'ng ularga hujjatlar qabul qilinganligi, tahrirlashga yuborilganligi yoki rad etilganligi to'g'risida xabar yuboriladi.

20. Quyidagi hollarda hujjatlar tahrirlashga yuboriladi:

ushbu Nizomning 17-bandida belgilangan hujjatlar to'liq bo'lmaganda;

taqdim etilgan hujjatlardagi, muhrdagi yozuvlar o'qib bo'lmaydigan holda nusxalangan bo'lsa.

21. Hujjatlarni tahrirlash uchun yuborilganda, o'quvchilarga ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun hujjatlarni qabul qilish muddati tugagunga qadar to'g'rilashga ruxsat beriladi.

Hujjatlarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng ma'lumotlarni o'zgartirishga ruxsat berilmaydi.

22. Quyidagi hollarda o'quvchilarning hujjatlarini qabul qilish rad etiladi:

belgilangan muddatlardan keyin kirish imtihonida ishtirok etish xohishini bildirsa;

taqdim etilgan hujjatlarning soxta ekanligi aniqlanganda;

o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 5-sinfini (yoki undan yuqori) to'liq tamomlagan o'quvchilar Jasorat sinflarining 5-sinfida takroran o'qish istagini bildirgan bo'lsa.

23. O'quvchilarning ota-onasi (qonuniy vakili) hujjatlarni qabul qilish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan arizani qaytarib olish yoki bekor qilish huquqiga ega.

24. Jasorat sinflariga kirish uchun jismoniy tayyorgarlik hamda tegishli fanlar yo'nalishi bo'yicha test sinovlari iyul oyida o'tkaziladi. Bunda, jismoniy tayyorgarlik sinovlariga Hamkor tashkilotlarning hududdagi harbiy qismlaridan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mutaxassislar jalb etiladi.

25. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovda umumiy o'rta ta'limning 4-sinf uchun mo'ljallangan o'quv dasturi doirasida har bir o'quvchiga 5 tadan jismoniy mashqlar beriladi. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinov 50 ballik tizimda mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq baholanadi.

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinov yakunlari bo'yicha 30 va undan yuqori ball to'plagan o'quvchilar test sinovlari topshirishga ruxsat etiladi.

26. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovlarga o'z vaqtida kelmagan o'quvchilar uchun qo'shimcha sinovlar o'tkazilmaydi.

27. O'quvchilar xohishiga ko'ra uch tilda — o'zbek, qoraqalpoq va rus tillaridan birida test sinovlarini topshiradilar.

28. Qabul komissiyasi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o'quvchilar, ularning ota-onasi (qonuniy vakili) test sinovlarini o'tkazish sanasi, joyi va vaqti to'g'risida ogohlantiriladi.

29. Test sinovlari o'tkaziladigan fanlar bo'yicha imtihon materiallari spetsifikatsiyasi Vazirlik tomonidan har yili imtihon boshlanishidan bir oy oldin e'lon qilinadi.

Test sinovlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf dasturlariga muvofiq ravishda, ona tili va matematika fanlaridan tashkil etiladi.

Bunda, matematika fani topshiriqlariga mantiqiy savollar ham kiritiladi.

Test topshiriqlari kitobida matematika uchun 30 ta, ona tili uchun 20 ta topshiriq belgilanadi. Umumiy 50 ballik tizimda baholanadi hamda har bir to'g'ri javob uchun 1 balldan qo'yiladi.

Test topshiriqlarini bajarish bo'yicha har bir savol uchun 2 daqiqa vaqt beriladi.

Javoblar varaqasini to'ldirish uchun o'quvchilarga belgilangan vaqt me'yoridan tashqari qo'shimcha 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

30. Test sinovlariga o'z vaqtida kelmagan o'quvchilar uchun qo'shimcha test sinovlar o'tkazilmaydi.

31. O'quvchilar kirish imtihonlari natijalari bo'yicha teng ball to'plagan taqdirda, ishchi guruh tomonidan mazkur Nizomning 25-bandiga muvofiq o'quvchilar qo'shimcha jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovdan o'tkaziladi.

4-bob. Kirish imtihonlari natijalarini e'lon qilish

32. Kirish imtihonlarining yakuniy natijalari test sinovlari o'tkazilgan kundan keyin 20 kun ichida Vazirlik va Agentlikning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

33. Kirish imtihonlarining (jismoniy tayyorgarlik va test sinovlari) natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan o'quvchilar belgilangan qabul kvotasi doirasida ballar ketma-ketligida o'quvchilar safiga qabul qilinadi.

34. O'quvchilar kirish imtihonlari natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda natija e'lon qilingan vaqtdan boshlab 3 ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga ariza bilan murojaat etishga haqli.

35. Kirish imtihonlari natijalaridan norozi bo'lgan o'quvchilarning murojaatlari Agentlikda tegishli mutaxassislardan tuzilgan apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Apellyatsiya komissiyasiga Agentlik direktori o'rinbosari raislik qiladi.

36. Apellyatsiya komissiyasi o'quvchilarning murojaatini 10 kun muddatda ko'rib chiqadi va arizani qanoatlantirish yoki rad qilish to'g'risida xulosa beradi.

37. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga jismoniy tayyorgarlik va test sinovida qatnashgan xodimlar kiritilmaydi.

38. Apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni rad etish;

apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirish.

39. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi holatlarda apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qiladi:

apellyatsiya berish muddatlarini buzgan holda taqdim etilgan bo'lsa;

apellyatsiyada ko'rsatilgan vajlar va dalillar o'z tasdig'ini topmasa.

40. O'quvchi tomonidan apellyatsiya shikoyatida keltirilgan vajlar va dalillar o'z tasdig'ini topgan taqdirda, jismoniy tayyorgarlik va (yoki) test sinovlari natijasida o'quvchining to'plagan ballarini o'zgartirish to'g'risida Apellyatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinadi.

41. O'quvchilar va ularning ota-onasi (qonuniy vakili) Apellyatsiya komissiyasining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, yuqori turuvchi organga yoki sudga murojaat etish huquqiga ega.

42. Yangi o'quv yili boshlangunga qadar kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilar to'plagan ballari asosida ketma-ketlik bo'yicha maktab direktorining tegishli buyrug'i bilan Jasorat sinflariga qabul qilinadi.

43. Jasorat sinflariga o'quvchilar qabuli natijalari bo'yicha ma'lumotlar Vazirlik tomonidan har yili 10-sentabrga qadar umumlashtirilib, Jasorat sinflari birlashtirilgan Hamkor tashkilotlarga ma'lumot uchun taqdim etiladi.

44. Jasorat sinfida ta'lim olayotgan o'quvchilarni boshqa (oddiy) sinfga yoki

boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'qishni ko'chirish Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qarori bilan tasdiqlangan Bolalarni davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qabul qilish hamda o'quvchilarni bir umumiy o'rta ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

45. Jasorat sinflari tashkil etilgan maktabda bo'shab qolgan o'rinlarga kirish imtihonlarida ishtirok etib, lekin qabul qilinmay qolgan o'quvchilar ballar reytingi bo'yicha ketma-ketlikda qabul qilinadi.

Agar o'quvchining ota-onasi (qonuniy vakili)dan rad javobi olinsa, ballar reytingi bo'yicha navbatdagi yuqori ball to'plagan o'quvchi chaqirib olinadi.

Mazkur bandeda belgilangan talablar faqatgina Jasorat sinflari tashkil etilgan umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun joriy o'quv yilining birinchi yarim yilligida tatbiq etiladi.

5-bob. Jasorat sinflarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish

46. Jasorat sinflarida umumiy o'rta ta'lim fanlari soatlarini maqbullashtirish hisobiga matematika, fizika, tarix, chet tili, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (bundan buyon matnda CHQBT deb yuritiladi) va jismoniy tarbiya fanlari chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi.

Vazirlik CHQBT fani o'quv dasturlarini Mudofaa vazirligi bilan kelishilgan holda, matematika, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili hamda fizika fanlari o'quv dasturlari esa Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

47. Jasorat sinflarida ta'lim 5 — 11-sinflarda kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim o'zbek, qoraqalpoq va rus tillaridan birida olib boriladi.

48. Jasorat sinflarida o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishda turli zamonaviy shakllar va usullardan, jumladan o'qitilayotgan fanlar bo'yicha fakultativ va to'garak mashg'ulotlari hamda o'quvchilarni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash tadbirlaridan foydalaniladi.

49. Jasorat sinflari o'quvchilari uchun o'qish, dam olish va turli tadbirlarni qo'shib olib borishga qaratilgan kun tartibi tuziladi.

50. O'quv yili yakuni bo'yicha tarix, matematika, ona tili fanlaridan qoniqarsiz natija ko'rsatgan Jasorat sinflarining o'quvchilari maktab pedagogik kengashining qarori bilan maktabning umumiy sinflariga o'qishni davom ettirish uchun o'tkaziladi.

51. Jasorat sinflarining 9-sinfini yakunlagan o'quvchilarga tayanch o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnoma, 11-sinfini tamomlagan o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnoma beriladi.

52. Jasorat sinflarini yakunlaganlik to'g'risida shahodatnoma boshqa ta'lim muassasalariga kirishda qo'shimcha imtiyoz bermaydi.

53. Jasorat sinflarini a'lo baholar bilan tamomlagan har bir "Vatan tayanchi" otryadining a'zosi bo'lgan bir nafar o'quvchiga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq oliy harbiy va harbiylashtirilgan hamda yuridik ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi.

54. O'quv jarayonini tashkil etish va uning mazmuni O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

55. Jasorat sinflari mavjud maktablarning faoliyatini moliyalashtirish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

56. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

“Jasorat maktablari”ga o‘quvchilarni qabul qilish
va o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinov natijalarini baholash
MEZONLARI
(4-SINF O'QUVCHILARI UCHUN)

T/r	Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinov mashqlari	Natijalari va ballar							
		O'g'il bolalar				Qiz bolalar			
		10 ball	8 ball	6 ball	0 ball	10 ball	8 ball	6 ball	0 ball
1.	30 metrga yuqori startdan yugurish (soniya)	5,2 — 5,4	5,5 — 6,0	6,1 — 6,8	6,9 va undan yuqori	5,4 — 5,6	5,7 — 5,9	6,0 — 6,2	6,3 va undan yuqori
2.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm), (3 ta imkoniyatdan eng yaxshisi hisoblanadi)	155 — 151	150 — 146	145 — 141	140 va undan kam	140 — 136	140 — 136	135 — 131	130 va undan kam
3.	Gimnastika o'rindig'ida tizzalarni bukmasdan oldinga egilish (sm)	13 — 11	10 — 8	7 — 5	4 va undan kam	14 — 12	11 — 9	8 — 6	5 va undan kam
4.	Gimnastika o'rindig'iga (skameyka) tayangan holda qo'llarni bukib yozish (30 soniya \marta)	-	-	-	-	31 — 27	26 — 22	21 — 17	16 va undan kam
5.	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (30 soniya \marta)	31 — 27	26 — 22	21 — 17	16 va undan kam	-	-	-	-
6.	Arg'imchida sakrash (60 soniya \marta)	90 — 81	80 — 71	70 — 61	60 va undan kam	100 — 91	90 — 81	80 — 71	70 va undan kam

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРИНИНГ
БҲЙРУҒИ

341 Хориждан келтирилган ғўза уруғликларининг генетик тозалиги бўйича молекуляр-генетик таҳлиллар ўтказиш юзасидан маҳаллий ваколатли лаборатория хулосасини олиш тартиби тўғрисидаги низомнинг 10-бандига ўзгартириш киритиш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил
2 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3504-1*

Ўзбекистон Республикаси «Уруғчилик тўғрисида»ги Қонунининг 11-моддасига мувофиқ **бўюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирининг 2024 йил 7 мартдаги 5-сон бўйруғи (рўйхат рақами 3504, 2024 йил 19 март) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.03.2024 й., 10/24/3504/0233-сон) билан тасдиқланган Хориждан келтирилган ғўза уруғликларининг генетик тозалиги бўйича молекуляр-генетик таҳлиллар ўтказиш юзасидан маҳаллий ваколатли лаборатория хулосасини олиш тартиби тўғрисидаги низомнинг 10-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«10. Ғўза уруғликларининг генетик тозалиги бўйича молекуляр-генетик таҳлил ўтказиш учун ушбу ғўза уруғликларидан намуналар олиш ГОСТ 12430-2019 ёки О'z DSt 1080:2005га асосан амалга оширилади.».

2. Мазкур бўйруқ Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги билан келишилган.

3. Мазкур бўйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Вазир

И. АБДУРАХМОНОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 23 июнь,
29-сон

Келишилди:

**Ўзбекистон техник жиҳатдан
тартибга солиш агентлиги директори А. ЖУМАНАЗАРОВ**

2025 йил 2 июнь

* Ушбу бўйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 2 июлда эълон қилинган.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I

342 “Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida”gi buyruq, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
4-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1808-3*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi 206-son “Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2024-yil 11-oktabrdagi 665-son “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari hamda ichki xo'jalik yo'llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi va 2024-yil 30-dekabrdagi 901-son “Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda Transport vazirligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

D. KUCHKAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 20-may,
258-son

Kelishildi:

***Qurilish va uy-joy kommunal
xo'jaligi vaziri***

Sh. XIDOYATOV

2025-yil 23-aprel

Transport vaziri

I. MAXKAMOV

2025-yil 21-aprel

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 5-iyunda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil
20-maydagi 258-son buyrug'iga
ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy
normativ-huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 7-maydagi 49-son "Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1808, 2008-yil 16-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 20-21-son, 181-modda).

2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2012-yil 1-martdagi 24-son "Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1808-1, 2012-yil 15-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 11-son, 123-modda).

3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 6-iyuldagi 52-son "Davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 3448, 2023-yil 25-iyul) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.07.2023-y., 10/23/3448/0539-son; 27.12.2024-y., 10/24/3590/1074-son) ilovaning 9-bandi.

4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 26-dekabrda 1808-son "Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomning 23-bandiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1808-2, 2024-yil 27-dekabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2025-y., 10/25/1808-2/0013-son).

**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг
вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг
норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан
ўтказиш ҳолати тўғрисида
МАЪЛУМОТИ**

I. Давлат рўйхатидан ўтказилди:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2025-yil 18-iyundagi 01/7-11/40-son "Maydoni 2000 kvadrat metrgacha bo'lgan bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini hokim yordamchilarining onlayn buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i.

2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3372-2.

2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 266-son, Soliq qo'mitasining 2025-yil 10-iyundagi 2025-11-son va Transport vazirligining 2025-yil 30-maydagi 6-son "Xalqaro temir yo'l aloqalaridagi hisob-kitoblarda temir yo'l ma'muriyatlari o'rtasidagi o'zaro hisoblashishlar tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1696-1.

3. Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги директорининг 2025 йил 17 июндаги 9-сон "Қимматли қоғозлар эмиссияси ва эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқарилишларини давлат рўйхатидан ўтказиш қоидаларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида"ги буйруғи.

2025 йил 30 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2000-12.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 16-iyundagi 8-son "Linoleum uchun yopishqoq mastikalar, nitrolaklar, nitroemallar va nitromastikalar ishlab chiqarish xodimlari uchun xavfsizlik qoidalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2016-4.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 16-iyundagi 11-son "Yuk ko'targich (minora)larni o'rnatish va ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori.

2025-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2313-3.

6. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 17-iyundagi 267-son "Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.

2025-yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3634.

7. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 29-maydagi 202-son "Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.

2025 yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3635.

8. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 28-son, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 7-mh-son "Jasorat maktablari"ga o'quvchilarni qabul qilish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

2025 yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3636.

9. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирининг 2025 йил 23 июндаги 29-сон "Хориждан келтирилган гўза уруғликларининг генетик тозалиги бўйича молекуляр-генетик таҳлиллар ўтказиш юзасидан маҳаллий ваколатли лаборатория хулосасини олиш тартиби тўғрисидаги низомнинг 10-бандига ўзгартириш киритиш ҳақида"ги буйруғи.

2025 йил 2 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3504-1.

10. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 20-maydagi 258-son "Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyruq, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi buyrug'i.

2025-yil 4-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1808-3.

II. Davlat reestridan chiqarildi:

1. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 7-maydagi 49-son "Shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (to'lovlarni amalga oshirish) tartibi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1808, 2008-yil 16-may), shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni (ro'yxat raqami 1808-1, 2012-yil 15-mart), (ro'yxat raqami 1808-2, 2024-yil 27-dekabr).

2025 йил 4-iyunda davlat reestridan chiqarildi.

Мазкур ҳужжатлар қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.